Innovatsiya ta'lim mekemesi menejmenti na'tiyjeliginin' muhim sharti. Ta'lim mekemesi innovatsion xizmetin sho'lkemlestiriv kriteriyalari analiz etiw kriteriyalari. Ta'lim mekemesi innovatsion xizmetti diagnoz etiw.

Ta'lim sistemasinda marketing.

Ta'lim tarawindag'I marketing – mutaxassis kadrlar tayyarlawg'a bólgan talap ha'mmu'ta'jliklerdi qandiriwg'a qaratilg'an xizmet ekanligi. Ta'lim xizmatleri marketingi tu'rleri. Ta'lim xizmetleri marketingi strategiyasi, onin' basqiwleri. Ta'lim xizmetleri bazarin eyielewdin' ma'nisi. Ta'lim xizmetleri bazarin rawajlantirivh mazmuni. Ózbekistanda ta'lim xizmetleri tarawin basqariwdin' ózine ta'nlikleri. Ta'lim mekemelerinde ta'lim xizmetlerin sho'lkemlestiriv bag'darlari ha'm turleri.

Ta'lim sistemasin qarji menen ta'minlew.

Ta'lim sistemasin qarji menen ta'minlew mazmuni. Ta'lim mekemeleri byudjetten tis mablag'inin' sho'lkemlesiw. Ta'lim mekemelerin byudjetden tis xizmetin basqariw.

Mektep ta'limi mazmuni

Mektep ta'limi haqqında tu'sinik. Mektep oqıw pa'nlerinin' bilim beriwshilik, ta'rbiyalıq, rawajlandırıwshılıq a'himiyeti. Mektep oqıw jobası, bag'darlaması, sabaq lıqlarının' d6ziliw prinsipleri.

Oqıwshılar bilimin tekseriw ha'm bahalaw

Oqıwshılar bilimin tekseriw din' ha'm bahalaw din' pedagogikalıq a'himiyeti. Bilimdi tekseriwge ha'm baxalawg'a qoyilatug'ın talaplar. Bilimdi tekseriw din' ha'm baxalaw din' tu'rleri. Bilimdi tekseriw ha'm baxalaw o'lshepleri.

Mektepte oqıw –ta'rbiya jumısların qadag'alaw.

Mektepte oqıw –ta'rbiya jumısların qadag'alaw haqqında tu'sinik. Oqıw-ta'rbiya jumısların qadag'alaw barısında materiallar toplaw ha'm talıqlaw. Oqıw-ta'rbiya jumısların qadag'alawda inspektorlardın' atqaratug'ın xızmetleri

Paydalanilgan a'debiytlar dizimii

8. Педагогика. М.Тохтажоджаеванинг умумий тахрири остида (Дарслик).-Т., 2010.

9. Ибрагимов Х.И., Абдуллаева Ш.А. Педагогика назарияси (ўқув қўлланма).-Т., 2008.

10. Ҳошимов К., Нишонова С., Иномова М., Ҳасанов Р. Педагогика тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1996.

11. Ҳасанбоев Ж., Ҳасанбоева О., Ҳомидов Ҳ. Педагогика тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1997.

12. Сафо Очил., Ҳошимов К. Ўзбек педагогикаси антологияси. – Т.: Ўқитувчи, 1999.

13. Ҳошимов К., Сафо Очил. Ўзбек педагогикаси антологияси. – Т.: Ўқитувчи, 2010.

14. Хасанбоев Ж, Тўракулов Х., Хайдаров М., Хасанбоева О. Педагогика фани-дан изохли луғат. – Т.: Фан ва технология, 2008.
15. Djuraev R.X., Turgunov S.T. Tálim menejmenti. – Т.: Voris, 2006.
16. Sharifxo'jaev M., Abdullaev Yo. Menejment. Darslik. –Т.: Wqituvchi, 2001.
17. Sharifxo'jaev M., Abdullaev Yo. Menejment: 100 savol va javob. – Т.: Mehnat, 2000.
18. Виханский О.С., Наимов А.И. Менеджмент: Учебник – М.: Экономит, 2006.

Qóshimcha adabiyotlar

1. Инновационный менеджмент: Учебник / Под. ред. Горфинкеля В.Я. – М.: Вузовский учебник, 2006.
2. Егоршин А. П. Управление персоналом: Учеб. Для вузов 3-е изд. – Нижний Новгород.: НИМБ, 2001.
3. Peregudov L.V., Saidov M.X. Oliy tálim menejmenti va iqtisodiyoti. – Т.: Moliya, 2002.
4. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardaev A.X. Direktorning ish kitobi (amaliy tavsiyalar). – Т.: 2007.
5. Гавриленко В.М., Водопянов В.П. Менеджмент - М.: Книга-сервис, 2003.
6. Гулямов С. С., Семенов Б.Д. Основы современного менеджмента. – Т.: 1997.
7. Веснин В.Р. Менеджмент для всех. – М.: Юрист, 1994.
8. Виханский О.С. Статегическое управление. – М.: Гардарики, 1999.

Elektron ta'lim resurslari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.Ziyonet.uz
4. www.edu.uz
5. [tdpu-INTRANET. Ped](#)

5A111201 – O‘zbek tili va adabiyoti

Tuzuvchi: S.Matyakupov – NDPI, O‘zbek adabiyoti kafedrası mudiri, f.f.n., dotsent.

Taqrizchilar: Sh.Yuldasheva – NDPI, O‘zbek tili kafedrası mudiri, p.f.n., dotsent
I.Qurbonboev – Qoraqalpoq davlat universiteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrası mudiri, f.f.n., dotsent.

KIRISH

O‘zbek tili va adabiyoti qadimiy va boy tarixga ega bo‘lib, uning shakllanishida qadim turkiy, mumtoz adabiyotimizning Mahmud Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yugnakiy, Atoiy, Sakkokiy, Lutfiy kabi namoyandalarning xizmati va qoldirgan merosi muhim o‘rin egallaganini qayd etish joiz. O‘zbek adabiy tili, ayniqsa, XIV-XV asrlarda – Amir Temur va temuriylar davrida rivojlanishning yangi, yuksak bosqichiga ko‘tarildi. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy umumbashariyat madaniy xazinasidan munosib o‘rin olgan o‘lmas asarlarini aynan ona tilimizda bitib, uning shuhratini butun olamga yoydi. Ana shu bebaho meros asosida ma‘naviy yetuk, barkamol avlodni tarbiyalash, zamon talablariga javob bera oladigan malakali milliy kadrlar tayyorlash islohotlarning mohiyatini tashkil etadi. O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassislari zimmasiga esa milliy tilimiz va adabiyotimizni yanada rivojlantirish, ona tilimizning jamiyat hayotida tutgan mavqeyini yuksaltirish, uning tarixiy taraqqiyoti, bugungi holati, istiqboli bilan bog‘liq masalalarni ilmiy asosda chuqur o‘rganish kabi qator vazifalar yuklatiladi. Ayniqsa, ona tili va adabiyotini jahon andozalariga mos keluvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida chuqur o‘rgatish, o‘zbek tili va adabiyotining asl tabiati va xususiyatlarini to‘la aks ettiradigan mukammal akademik va o‘quv grammatikalarini yaratish masalasida soha uchun nazariy va amaliy ko‘nikmaga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash dolzarblik kasb qiladi.

ASOSIY QISM

Til va adabiyot xazinasini, tarixiy taraqqiyoti, hozirgi o‘zbek tilining strukturaviy va sistemaviy xususiyatlari, tarixiy ildizlari va dialektal asoslari, fonetik va fonologik, grafik va orfografik tizimlari, talaffuz me‘yorlari, lug‘at boyligi, morfologik va sintaktik qurilishlari, ularning tadrijiy rivoji bo‘yicha nazariy bilimlar va ularni tadqiq qilish usullari.

HOZIRGI O‘ZBEK ADABIY TILI FANI BO‘YICHA MAVZULAR

Fonetikaning predmeti, maqsadi va vazifalari. Fonetik tizimning segment va supersegment biriliklari, ularning shakllantiruvchi va tanituvchi funksiyalari.

Fonetikaning tadqiqot maqsadi va usuliga ko‘ra turlari: umumiy fonetika, xususiy fonetika (tavsifiy fonetika, tarixiy fonetika), qiyosiy fonetika eksperimental (instrumental) fonetika.

Fonetikaning to‘rt aspekti: Fizik-akustik aspekt. Anatomik-fiziologik aspekt. Perseptiv aspekt. Lingvistik-funksional aspekt.

Fonologiya. Fonema, uning differensial (farqlanadigan) va integral (farqlanmaydigan) belgilari. Fonologik zidlanishlar, ularning turlari: bir o'lovli, ko'p o'lovli, proporsional, ekvipolent, privativ va gradual (pog'onali) oppozitsiyalar.

Korrelyatsiya bir farqlanish belgisi asosida tarkib topgan ikki va undan ortiq zidlanishlar qatori sifatida. Vokalizm va konsonantizm tizimlarida korrelyatsiya turlari.

Fonema ottenkalari fonemalarning talaffuzdagi real ko'rinishlari ekanligi. Fonema va ottenkalar o'rtasidagi umumiylik va xususiylik munosabatlari. Ottenkalar tasnifi: majburiy ottenkalar (kombinator, pozitsion ottenkalar), individual ottenkalar va fakultativ ottenkalar. Ottenka, variant va variatsiya tushunchalari o'rtasidagi munosabatlar.

Transkripsiya, uning turlari: fonetik va fonematik transkripsiyalar, ularning adabiy-orfografik yozuvdan farqlari.

Hozirgi o'zbek tili vokalizmi. Unlilar tasnifi. Ayrim unlilar tavsifi. Unlilarning kombinator va pozitsion xarakteristikasi. Unli fonemalarning kombinator va pozitsion ottenkalari (allofonlari).

Hozirgi o'zbek tili konsonantizmi. Undosh fonemalarning fokuslari. Bir fokusli va ikki fokusli undoshlar.

Undosh fonemalar tasnifi: artikulyatsiya o'rniga, artikulyatsiya usuliga, un paychalari ishtirokiga hamda ovoz bilan shovqin munosabatiga ko'ra undoshlarning turlari. Undosh fonemalar tasnifi.

Tilning fonetik sathidagi divergensiya va konvergensiya jarayonlari. Undoshlarda kuchli va kuchsiz pozitsiyalar.

Fonetik hodisalar, ularning turlari. Kombinator omillar ta'sirida sodir bo'ladigan hodisalar: assimilyatsiya, akkomodatsiya, ularning turlari. Nazalizatsiya. Pozitsion omillar ta'sirida sodir bo'ladigan hodisalar: reduktsiya, ochiq bo'g'indagi unlilarda sifat o'zgarishi, ayrim jarangli undoshlarning so'z oxirida jarangsizlanishi.

Turkiy so'zlarning an'anaviy fonetik tarkibiga moslashish: proteza, epenteza, epiteza.

Fonetik hodisalarning boshqa turlari: tovush tushishi (prokopa, sinkopa, apokopa, eliziya sandxi hodisasi, aferezis, gaplogiya), tovushlarning o'rin almashinuvi (metateza), dissimilyatsiya, geminatsiya, degeminizatsiya, sinerezis, spirantizatsiya va boshqalar.

Bo'g'in (sillabema). Bo'g'in tuzilishi. Bo'g'in markazi. Bo'g'in tiplari: berkitilgan bo'g'in, berkitilmagan bo'g'in, ochiq bo'g'in, yopiq bo'g'in. Bo'g'in tiplarining yangi tasniflari. Bo'g'inning til va nutqdagi ahamiyati.

Urg'u (aksentuatsiya). Urg'u tiplari: so'z urg'usi, uning fonetik tabiatiga, tushadigan o'rniga va harakat qilish belgisiga ko'ra turlari (dinamik urg'u, erkin urg'u, ko'chadigan urg'u, ko'chmaydigan urg'u); sintagma urg'usi, uning mezonlari; ayiruv urg'usi (logik urg'u va emfatik urg'u). Urg'uning til va nutqdagi roli.

Intonatsiya (intonema), uning prosodik elementlari: nutq melodikasi, nutq ritmi, temp, nutq intensivligi, nutq tembri, pauza. Intonatsiya turlari: tugallangan intonatsiya, tugallanmagan intonatsiya, darak intonatsiyasi, so‘roq intonatsiyasi, undov intonatsiyasi, chaqiruv (undash) intonatsiyasi, sanash intonatsiyasi va boshqalar. Intonatsiyaning gap va nutqdagi roli.

Grafika va orfografiya. Grafika haqida ma’lumot: grafikaning muayyan til birliklarini (fonema, aktsentema, intonema, leksema, morfemalarni) yozuvda ifodalash uchun maxsus shakllantirilgan optik-grafik belgilar tizimi ekanligi. Grafemaning bilateral (ifoda va mazmun planlariga ega) belgi sifatidagi tavsifi. Bu belgining mazmun planida til birliklarining kodlashtirilishi. Grafema va fonema o‘rtasidagi umumiy va xususiy jihatlar. Grafemalarning tildagi muqobili (kodlashtirilgan referenti) va yozuvdagi vazifalariga ko‘ra tiplari: fonografema, prosodemografema, logografema, orfografik belgi va signalizatorlar.

Fonografemalar, ularning ifoda planiga (harflar miqdoriga) ko‘ra turlari: monograflar va poligraflar. Mazmun planiga (kodlashtirilgan fonema miqdoriga) ko‘ra fonografemalarning turlari: monofonemali va polifonemali (bifonemali) grafemalar.

Prosodemografemalar tovush tilning ritmik-intonatsion vosialarini (urg‘u, ohang, melodika, pauzalarni) yozuvda ifodalash uchun xizmat qiluvchi noharfiy belgilar guruhi ekanligi, ularning turlari (urg‘u belgisi, tinish belgilari).

Logografemalar va morfografemalar tilning ma’noli birliklarini (leksema va morfemalarni) ifodalash uchun xizmat qiluvchi optik-grafik belgilar sifatida: raqamlar (arab va rim raqamlari), simvollar.

Orfografik belgilar (defis) va signalizatorlar (ayirish belgisi, yumshatish belgisi, tutuq belgisi, razryadka, kursiv va boshqalar).

Yangi (lotincha) o‘zbek yozuvining grafik tizimi, uning harfiy va noharfiy belgilari. Yangi (lotincha) o‘zbek yozuvi grafik tizimining amaldagi (kirillcha) o‘zbek yozuvi grafik tizimidan farqlari.

Orfografiya yozuv tizimining ikkinchi komponenti (birinchisi-grafika) ekanligi, uning to‘g‘ri yozish me‘yorlarini belgilaydigan qoidalardan iboratligi. Orfografiya va grafika o‘rtasidagi farqlar: grafemalarning kodlashtirishga, orfogrammalarining esa tanlashga asoslanganligi.

Orfografiya prinsiplari: fonetik, fonematik, morfologik, grafik, tarixiy-an’anaviy, ramziy (simvolik, differensial), shakliy-an’anaviy va semantik-uslubiy prinsiplar.

Imlo qoidalari. Kirillcha o‘zbek yozuvining imlo qoidalari. Lotincha o‘zbek yozuvining imlo qoidalari.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili yozuv tizimlari haqida tarixiy-xronologik ma’lumot.

Orfoepiya. Orfoepiya haqida ma’lumot. Unli tovushlar orfoepiyasi. Undosh tovushlar orfoepiyasi. So‘z qismlari talaffuzi. Boshqa tillardan o‘zlashtirilgan ayrim so‘zlar orfoepiyasi.

Orfoepiyaning adabiy til faoliyatida tutgan o‘rni, uning fonetika, grafika va orfografiya bilan aloqasi.

Leksikologiya. Leksikologiyaning ob'ekti, predmeti va vazifalari. Lug'at tarkibi, uning taraqqiyoti va lug'at tarkibining rivojida lisoniy (lingvistik) va nolisoniy(ekstralingvistik) omillarning ishtiroki.

Leksikologiyaning turlari: umumiy va xususiy leksikologiya. Diaxron (tarixiy) va sinxron (hozirgi yoki tasviriy) leksikologiya. Leksikologiyaning semasiologiya, onomasiologiya, etimologiya, frazeologiya, so'z yasalishi kabi hodisalar bilan aloqasi.

So'z va uning asosiy mohiyati. Leksik mazmunli va grammatik mazmunli so'zlar. Leksema til birligi sifatida. Leksemaning ifoda hamda mazmun plani. Leksemaning semantik tarkibi. Leksik ma'no va qo'shimcha ottenkalar. Emotsional-ekspressiv bo'yoqdorlik, uslubiy baho haqida ma'lumot. Leksik ma'noning semantik tarkibi. Leksik ma'no tarkibga ajraladigan til birligi sifatida. Leksik ma'no va semantik qism (sema). Komponent tahlil haqida ma'lumot. Ideografik sema. Umumiy (integral, mushtarak), differentsial (farqlovchi) semalar. Tildagi barcha leksik birliklarni tematik, leksik-semantik guruhlariga ajratishda integral semaning ahamiyati.

Konnotativ semalar. Termin nominativ birlik sifatida va uning mazmun plani.

Leksik ma'no va leksik qo'llash. Leksemaning uzual hamda okkazional ma'nolari haqida ma'lumot. Okkazional ma'nolarning yuzaga kelishi.

Bir ma'nolilik (monosemiya) va ko'p ma'nolilik (polisemiya). Leksik ma'no taraqqiyotiga olib keluvchi nolisoniy va lisoniy omillar. Leksik ma'no taraqqiyotiga olib keluvchi metafora, funktsiyadoshlik, metonimiya, sinekdoxa usullari haqida ma'lumot. Yangi leksik ma'noning evfemizm natijasida hosil bo'lishi. Leksik ma'no taraqqiyotiga olib keluvchi lisoniy omillar sifatida: ellipsis hamda kalkalash usullari haqida ma'lumot.

Leksik ma'no taraqqiyoti natijalari. Leksema tarkibidagi leksik ma'nolarning hajmiy va miqdoriy o'zgarishlari. Leksik ma'no hajmining kengayishi va torayishi. Leksema tarkibidagi leksik ma'nolarning miqdoriy o'zgarishlariga olib keluvchi hodisalar. Leksik ma'noning turlari. Hozirgi va avvalgi leksik ma'no. Bosh va hosila; to'g'ri va ko'chma; nominativ (nomlovchi) va figural (majoziy) ma'nolar haqida ma'lumot. Etimologik ma'no. Ma'no etimoni va shakl etimoni. Ilmiy etimologiya, soxta etimologiya va xalq etimologiyasi o'rtasidagi farqlar.

Sinonimiya. Sinonimiyaning ko'rinishlari. Leksik sinonimlar, sinonimik qator, dominanta. Leksik sinonimlarning turlari: 1) ideografik sinonimlar; 2) uslubiy sinonimlar; 3) nutqiy sinonimlar; 4) kontekstual sinonimlar; 5) absolyut sinonimlar (yoki leksik dubletlar). Leksik sinonimlarning paydo bo'lishi. Sinonimiya va polisemiya. Sinonimlarning tildagi ahamiyati.

Antonimiya. Lug'aviy antonimiya. Leksik antonimiya va antonimik juftlik. Kontekstual antonimiya. Antonimiya va enantiosemiya, antonimiya va polisemiya. Antonimlarning uslubiy ahamiyati.

Omonimiya. Omonimiyaning ko'rinishlari. Leksik omonimlar. Omoformalar. Omonimiya va polisemiya. Omonimlarning yuzaga kelishi. Omonimlarning ahamiyati. Omonimiyaga yondosh hodisalar: 1) omofonlar; 2) omograflar.

Paronimiya, giponimiya, graduonimiya, partonimiya. O'zbek tili leksikasida o'z va o'zlashgan qatlamlar. O'z va o'zlashgan qatlamlarning o'ziga xos xususiyatlari. Tojikcha o'zlashmalar va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Arabcha o'zlashmalar va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Ruscha o'zlashmalar va ularning o'ziga xos xususiyatlari. Leksema o'zlashtirish. Leksema o'zlashtirishning ijtimoiy-tarixiy sabablari. Leksema o'zlashtirish yo'llari: 1) jonli so'zlashuv orqali; 2) bosma manbalar orqali; Leksema o'zlashtirish usullari: 1) o'zicha olish; 2) kalkalab olish. Kalkaning ko'rinishlari: 1) grammatik kalka (to'liq kalka, yarim kalka); 2) semantik kalka. So'z o'zlashtirishning so'z qo'llashlan farqi.

Leksemalarning ishlatilish doirasi: dialektizmlar, kasb-hunar leksikasi, jargonlar, argonlar, vulgar birliklar. O'zbek tili leksikasida eskirish va yangilanish jarayonlari. Zamonaviy qatlam. Eski qatlam: istorizmlar va arxaizmlar. Yangi qatlam: neologizmlar.

Emotsional-ekspressivlik jihatdan o'zbek tili leksikasi. Nutq ko'rinishlariga ko'ra o'zbek tili lug'aviy birliklari.

Frazeologiya. Frazeologiyaning predmeti. Frazemaning ko'chma ma'noli turg'un konstruksiya ekanligi. Frazemaning ifoda va mazmun plani. Frazeologik ma'no va uslubiy bo'yoq.

Frazeologik monosemiya va polisemiya. Frazemalarning semantik turlari: frazeologik butunlik va frazeologik chatishmalar.

Frazemalarning shakl va ma'no munosabatlariga ko'ra turlari. Frazeologik omonimiya, sinonimiya, variatsiya, antonimiya, ularning uslubiy tavsifi.

Frazemalarni ishlatilish doirasi va zamoniyligi. Zamoniylilik belgisiga ko'ra istorizm, arxaizm va neologizmlarga bo'linishi.

Leksikografiya. Leksikografiya haqida ma'lumot. Lug'atlarning ko'zlangan maqsadga ko'ra tiplari: qomusiy (entsiklopedik) lug'atlar va lisoniy (lingvistik) lug'atlar.

Entsiklopedik lug'atlarning turlari: universal entsiklopediyalar va soha entsiklopediyalari.

Lingvistik lug'atlarning turlari: Umumiy lug'atlar va xususiy (maxsus) lug'atlar.

Tanlangan tillar miqdoriga ko'ra lug'at turlari: bir tilli, ikki tilli va ko'p tilli lug'atlar. Izohli va izohsiz lug'atlar.

Obyektiga ko'ra lug'at turlari: terminologik lug'atlar, frazeologik lug'atlar, orfografik lug'atlar, orfoepik lug'atlar, toponimik lug'atlar, sinonimlar lug'ati, chastota lug'ati, dialektologik lug'atlar, tarixiy lug'atlar, baynalminal so'zlar lug'ati, teskari lug'atlar, etimologik lug'at va boshqalar. Lug'at maqollarini joylashtirish tartibi va maqola sxemalari. O'zbek lug'atchiligi tarixidan qisqacha ma'lumot.

Morfemika va so'z yasalishi

Morfemika grammatikaning alohida bir bo'limi ekanligi. Morfema so'zning ifoda planida tovushdan keyin turadigan semantik- morfologik birlik ekanligi.

Soʻzning morfem tarkibi: soʻzda morfemalar chegarasini aniqlash. Morfemalar chegarasini aniqlashda chogʻishtirishning ahamiyati. Soʻzning oʻzak va affiks morfemalardan tarkib topishi.

Oʻzak va affiks morfema. Oʻzak morfema soʻzning leksik maʼnosini bildiradigan asosiy qismi ekanligi. Asosiy morfema hamda ergash morfema yoki yordamchi morfema terminlari haqida.

Oʻzak tilida affiks morfemalarning belgilari. Oʻzbek tilida affiks morfemalarning vujudga kelishi. Affiks morfemalarning tasnifi, turlari. Affiks omonimiya, sinonimiya, antonimiya.

Soʻzning morfem tarkibida oʻzgarishlar. Bunday oʻzgarishlarga olib keluvchi omillar. Affikslar qoʻshish bilan sodir boʻladigan oʻzgarishlar. Soddalanish hodisasi haqida maʼlumot. Morfologik qayta boʻlinish hodisasi. Qoʻsh qoʻllanish hodisasi (pleonazm).

Soʻz yasalihi. Soʻz yasalihi tilshunoslikning ayrim bir boʻlimi ekanligi. Soʻz yasalihi tilshunoslikning fonetika, leksikologiya, grammatika kabi boʻlimlari bilan uzviy bogʻliqligi.

Hozirgi (sinxron) va tarixiy (diaxron) soʻz yasalihi haqida.

Soʻz yasalihi strukturasi. Soʻz yasalihi strukturasi morfem strukturadan hamda morfologik strukturadan farqi. Yasovchi asos va yasovchi affiks, ularning oʻziga xos xususiyatlari. Qoʻshma affikslar haqida maʼlumot. Yasama leksemaning tuzilishiga koʻra sodda va qoʻshma turlari.

Soʻz yasalihi usullari. Affiksatsiya usuli. Fonetik usul. Sintaktik-leksik usul. Semantik usul. Kompozitsiya usuli.

Soʻz turkumlarida soʻz yasalihi. Soʻz turkumlarida soʻz yasalihi haqida umumiy maʼlumot. Ot, sifat, feʼl, ravish soʻz turkumlarida soʻz yasalihi. Ravish yasalihi haqidagi zamonaviy qarashlar.

Grammatika. Grammatika tilshunoslikning bir qismi ekanligi. Grammatika tilning grammatik qurilishiga xos boʻlgan qonun-qoidalarini oʻrganuvchi soha ekanligi: a) tilning grammatik qurilishi va tovush tomonining oʻzaro munosabati; b) tilning grammatik qurilishi va sostavi.

Grammatik maʼno, grammatik shakl, grammatik kategoriya haqida maʼlumot.

Leksik maʼno va grammatik maʼno. Grammatik maʼnoning turlari: 1) umumiy kategorial maʼno; 2) soʻzning leksik maʼnosiga qoʻshimcha tarzda maxsus shakllar orqali ifodalanadigan maʼno. Grammatik kategoriyalar.

Grammatika morfologiya va sintaksisni oʻz ichiga oladi. Soʻz va uning shakllari. Sintaktik shakl, analitik shakl, juft va takroriy shakl.

Morfologiya. Morfologiyaning soʻz haqidagi grammatik taʼlimot ekanligi. Morfologiya va leksikologiya. Morfologiya va sintaksis. Soʻzning morfologik strukturasi. Soʻzning morfologik strukturasi shakl yasalihi asos boʻlgan komponent bilan shakl yasovchi komponentdan (affiks yoki yordamchi soʻzdan) iborat boʻlishi. Shakl yasalihi asosining tub soʻz, sodda yasama soʻz, qoʻshma soʻz shakllarida boʻlishi. Soʻz shaklining asosi soʻz birikmasiga teng kelishi.

Soʻzning leksik-grammatik kategoriyalari. Soʻzlarni turkumlarga ajratish prinsiplari.

Ot so‘z turkumi.Otlarning ma‘noga ko‘ra turlari. Otning grammatik kategoriyalari: son kategoriyasi, egalik kategoriyasi, kelishik kategoriyasi.

Sifat so‘z turkumi. Sifatlarning semantik turlari, gapdagi vazifasi. Sifatlarning otlashishi va ravish vazifasida kelishi. Sifat darajalari. Sifatlarning tuzilishiga ko‘ra turlari.

Son so‘z turkumi. Sonning morfologik xususiyatlari. Sonning ma‘no turlari. Sonning hisob (numerativ) so‘zlari bilan qo‘llanishi. Sonning sintaktik xususiyatlari. Sonning tuzilishiga ko‘ra turlari. Çonlarning otlashuvi.

Olmosh so‘z turkumi.Olmoshning ma‘no va grammatik belgilari.

Olmoshning turlari. Olmoshning tuzilish jihatdan turlari. Boshqa turkum so‘zlarining olmoshga ko‘chishi (pronominalizatsiya) haqida.

Fe‘l so‘z turkumi. Mustaqil fe‘llar va yordamchi fe‘llar. To‘liqsiz fe‘llar. Tuslanishli va tuslanishsiz fe‘llar. Fe‘lning grammatik kategoriyalari: Bo‘lishli-bo‘lishsizlik, daraja, mayl, zamon, shaxs-son kategoriyalari.

Fe‘lning funksional shakllari.

Ravish so‘z turkumi. Ravishlarning ma‘nosi va morfologik xususiyatlari. Ravishlarning ma‘no turlari. Ravishlarda daraja.

Yordamchi so‘zlar. Ko‘makchi haqida tushuncha. Ko‘makchining vazifasi. Sof ko‘makchilar va sof otlar.

Bog‘lovchilar, ularning vazifasi va turlari. Yuklamalar, ularning vazifasi va turlari.

Modal so‘zlar. Modal ma‘nolarning ifodalanishi, usullari: morfologik, sintaktik, leksik usullar. Modal so‘z va kirish so‘z tushunchalari.

Undov so‘zlar. Undovlarning turlari: his-hayajon undovlari. Buyruq-xitob undovlari.

Taqlid so‘zlar. Tovushga taqlid so‘zlar, obrazga taqlid so‘zlar.

Konversiya va uning ko‘rinishlari. So‘z turkumlarining o‘zaro bir-biriga ko‘chishi. Mustaqil so‘z turkumlari va yordamchi so‘z turkumlarida ko‘chish hodisasi.

Sintaksis. Sintaksis predmeti. Sintaksis grammatikaning so‘zlar va gaplarning o‘zaro aloqasini, gap bo‘laklari, so‘z birikmalari, gap va nutqning yirik parchasi bo‘lgan matnni o‘rganuvchi bir qismi. Sintaksisning morfologiya, leksikologiya va fonetika bo‘limlari bilan bog‘liqligi. Sintaksisning tarkibiy qismlari. Sintaktika, semantika va pragmatika. Sintaktik aloqa vositalari:formal vositalar, leksik-grammatik vositalar, pozitsion vosita va intonatsion vosita.

Sintagmatik va paradigmatic munosabatlar. Shakliy va mazmuniy sintagmatik munosabat.

Sintaktik munosabatning turlari - mazmuniy sintagmatik munosabat: predikativ munosabat va nopredikativ munosabat. Atributiv, obyektli va relyativ munosabat. Kopulyativ munosabat. Introdaktiv munosabat: vokativ munosabat, modal munosabat. Predikativ munosabatning ifoda shakllari. Birlamchi va ikkilamchi predikativlik.

Shakliy sintagmatik munosabat - sintaktik aloqa: tenglanish va tobelanish. Ochiq va yopiq tenglanish. Tobe aloqa. Koordinativ va subordinativ

aloqa. Moslashuv, boshqaruv va bitishuv.

Soʻz birikmasi. Soʻz birikmasi sintaktik birlik sifatida. Soʻz birikmasi bir soʻzning boshqa soʻzga qoʻshilish imkoniyati- valentligiga tayanishi. Soʻzning 3 xil valentligi: sintaktik, semantik va leksik valentlik. Soʻz birikmasi va sintagma. Soʻz birikmasi va sintagmaning bir-biriga oʻxshash tomonlari va farqi. Sintagmalanish nutqning grammatik, mazmun jihati bilan bogʻlangan hodisa ekani. Soʻz birikmasining maʼnosi va vazifasi. Erkin va turgʻun birikmalar. Erkin soʻz birikmalarining turgʻun birikmalardan farqi. Soʻz birikmasining morfologik tabiatiga koʻra turlari: otli birikma, feʼlli birikma va ravish-sifatli birikma koʻrinishida kelishi. Soʻz birikmasining struktural xususiyatlari: sodda birikma va murakkab birikma.

Gap. Gapning semantik strukturasi. Predikativlik. Gap mundarijasining real voqelik bilan aloqadorlik hodisasi predikatsiya hisoblanishi. Predikativlik modallik, zamon va shaxs-son kategoriyalari bilan bogʻliqligi. Modallik gap mundarijasining voqelikka munosabatini ifodalashi, zamon (aytilayotgan fikrning nutq momentiga boʻlgan munosabati)ni bildirish, shaxs yesa harakat bajaruvchisini koʻrsatishi. Gapdagi predikativlikni ifodalovchi shakllar tizimi gapning paradigmasi hisoblanishi. Gapning grammatik kategoriyalari: grammatik shaxs kategoriyasi, grammatik zamon kategoriyasi, kommunikativ kategoriyasi, ifoda maqsadi kategoriyasi, modallik kategoriyasi.

Gapning intonatsion xususiyatlari. Ogʻzaki nutqda gapning grammatik-fikriy bir butun ekanligini intonatsiya bildirishi. Soʻz, soʻz birikmasi va gapni farqlovchi asosiy vositalardan biri intonatsiya ekanligi.

Gaplarning tasnifi. Gaplarning kuzatilgan maqsadga koʻra turlari: darak gap, soʻroq gap, buyruq va istak gaplar. Har bir turning oʻziga xos grammatik va intonatsion xususiyatlari. Har bir turda modallik xususiyatlarining ifodalanishi.

Gaplarning tuzilish jihatdan turlari: sodda va qoʻshma gaplar. Sodda gaplarning yigʻiq gap va yoyiq gap turlari. Qoʻshma gap, uning sodda gapdan farqi, turlari.

Gaplarning emotsionallikka (his-hayajonni ifodalashiga) koʻra turlari. Undov gaplarning grammatik, intonatsion xususiyatlari.

Gaplarning modallikka koʻra turlari: tasdiq va inkor gaplar. Bunday gaplarning oʻziga xos xususiyatlari.

Sodda gaplarning grammatik asosga koʻra turlari. Eganing ishtirokiga koʻra egasiz (bir sostavli) va egali (ikki sostavli) gaplarga ajratilishi. Bir sostavli gaplar tushunchasining yangicha talqini.

Sodda gap. Yigʻiq va yoyiq gaplar.

Sodda gap sintaksisi. Boʻlaklanish. Sintaktik boʻlaklanish. Sintaktik va morfologik shakllar. Sintaktik aloqaga kirishadigan va sintaktik aloqaga kirishmaydigan sintaktik shakllar. Gap boʻlaklari. Gap boʻlaklarining leksik-grammatik xususiyatlari. Logik boʻlaklar va grammatik boʻlaklar. Gap boʻlaklarining tasnifi. Bosh boʻlaklar va ikkinchi darajali boʻlaklar. Gap boʻlaklari talqiniga turlicha yondashuvlar. Kesim gapning asosiy uyushtiruvchi markazi ekanligi.

Bosh bo‘laklar. Kesim nutq predmetining belgisini tasdiq yoki inkor yo‘li bilan anglatadigan bo‘lak ekani. Kesim-predikativ markazni tashkil qiluvchi bosh bo‘lak. Kesimlarning morfologik ifodasiga ko‘ra turlari: ot-kesimlar, fel-kesimlar. Kesimning tuzilishiga ko‘ra turlari: sodda kesim, sostavli kesim va murakkab kesim. Mustaqil va nomustaqil kesimlar.

Murakkab kesimlar. Bog‘lama. Fel bo‘lmagan so‘zlar bilan birga kelib, kesimni shakllantirish, predikativlikni ko‘rsatish, modallik, zamon, mayl, shaxs-son ma’nolarini ifodalash uchun qo‘llanishi. Kesimning ega bilan moslashuvi.

Ega gapdagi fikr qaratilgan predmetning nomi ekanligi. Ega harakatini bajaruvchi shaxsning nomi yoki kesim ifodalangan holat yoki belgi qarashli predmet nomini bildirishi. Ega va subyekt. Eganing turli so‘z turkumlari bilan ifodalanishi. Eganing qo‘llanmaslik holatlari. Eganing kesim bilan shaxs va songa ko‘ra mos bo‘lishi. Eganing birikmali (yoyiq) kelishi.

Egasiz gaplar o‘z logik-grammatik xususiyatiga qarab egali gaplardan farqlanishi. Egasiz gaplarning turlari: shaxsi aniq gaplar, shaxsi noma’lum gaplar, shaxsi umumlashgan gaplar, shaxssiz gaplar, nominativ gaplar, vokativ gaplar. Bo‘laklarga ajralmaydigan gaplar, ularning mazmunga ko‘ra turlari.

Ikkinchi darajali bo‘laklar. Ularning gapdagi semantik va leksik-grammatik xususiyatiga ko‘ra tasnifi: aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol.

Aniqlovchi predmetning sifati, xususiyati miqdori yoki qarashliligi kabi turli belgilarini anglatuvchi ikkinchi darajali bo‘lak yekanligi. Aniqlovchining gapda konstruktiv bo‘lak bo‘la olmasligi.

Aniqlovchining ifodalanishi. Birikmali qo‘llanishi. Aniqlovchining turlari: sifatlovchi aniqlovchi, qaratqich aniqlovchi.

Sifatlovchili birikma qismlari bitishuv yo‘li bilan birikib atributiv munosabatini ko‘rsatishi. Qaratqichli birikma qismlari moslashuv yo‘li bilan birikib, atributiv munosabatini ko‘rsatishi.

Izohlovchi predmetni boshqacha nom bilan atash uchun qo‘llanadigan aniqlovchining alohida turi ekanligi. Izohlovchining turlari. Izohlovchining turli ma’no ifodalashi.

To‘ldiruvchi predikatning obyekt valentligini ifodalaydigan ikkinchi darajali bo‘lak ekanligi. To‘ldiruvchi hokim bo‘lagiga kelishik yordamida va ko‘makchi bilan bog‘lanishi va ularning semantikasi. Mustaqil va nomustaqil to‘ldiruvchi. To‘ldiruvchining turli so‘z turkumlari bilan ifodalanishi. To‘ldiruvchining vositasiz, vositali turlari, har ikki turning ma’nosi va qo‘llanishidagi o‘ziga xos tomonlari. Funksional va nofunksional to‘ldiruvchilar

Hol. Kesimga tobe bo‘lib, harakatning bajarilishidagi turli holatlarni bildiradigan ikkinchi darajali bo‘lak ekanligi. Hol va to‘ldiruvchi. Holning turli so‘z turkumlari bilan ifodalanishi. Holning turlari: ravish holi, o‘rin holi, payt holi, sabab holi, maqsad holi, miqdor-daraja holi.

Determinant bo‘laklar. Ularning gap tarkibidagi qo‘llanish xususiyati. Funksional va nofunksional hollar

Gap bo‘laklarining tartibi. O‘zbek tilidagap bo‘laklari tartibi. Gap bo‘laklari tartibi va aktual bo‘laklanish. Erkin tartib. Inversiya, uning turli

ko‘rinishlari.

To‘liq va to‘liqsiz gaplar. Sodda gap va uning bo‘laklarida sintaktik nomoslik. Shakliy va mazmuniy nomoslik. To‘liqsiz gapning qo‘llanishida o‘ziga xos mazmun va grammatik xususiyatlar mavjudligi.

Murakkablashgan sodda gaplar. Sodda gapni murakkablashtiruvchi vositalar: uyushiq bo‘laklar, ajratilgan bo‘laklar, undalmalar, kirish va kiritmalar, yordamchi so‘zlar, o‘ram (oborot)lar.

Uyushiq bo‘lakli gaplar, turli gap bo‘laklarining uyushib kelishi. Uyushiq bo‘laklarda egalik, kelishik va son ko‘rsatkichlarining qo‘llanishidagi o‘ziga xos xususiyatlar. Uyushiq bo‘laklarda umumlashtiruvchi birliklar. Uyushiq bo‘laklarni biriktiruvchi yordamchilar.

Ajratilgan bo‘lakli gaplarning shakliy va mazmuniy xususiyatlari. Ikkinchi darajali bo‘laklarning ajratilib qo‘llanishi.

Undalmali gaplar, tarkibida mazmunan bog‘lanib, grammatik aloqaga kirmaydigan so‘z va so‘z birikmalarining ishtirok etishi. Undalma vazifasida keladigan so‘zlar. Undalmalarning tuzilishiga ko‘ra turlari.

Kirish va kiritma konstruksiyali gaplar. Ular so‘zlovchining fikrga turli munosabatini bildirib, gap bo‘laklari bilan grammatik aloqaga kirishmasligi. Kirish konstruksiyalarning ma‘no turlari. Kiritma konstruksiyalar. Ularning turli mazmun ifodalashi va kirish konstruksiyalardan farqi.

Qo‘shma gap. Qo‘shma gaplarning shakliy va mazmuniy xususiyatlari. Qo‘shma gap qismlarini o‘zaro bog‘lovchi vositalar: bog‘lovchi, ko‘makchi, yuklama, kelishik shakllari; fe‘lning shart va buyruq mayli shakllari, nisbiy so‘zlar, intonatsiya va boshqalar. Qo‘shma gapning tuzilishiga ko‘ra turlari: ikki komponentli qo‘shma gaplar, ko‘p komponentli (murakkab) qo‘shma gaplar.

Ikki komponentli qo‘shma gaplarning turlari: bog‘langan qo‘shma gap, ergashgan qo‘shma gap. Qo‘shma gaplarning yordamchi vositalarsiz birikishi.

Bog‘langan qo‘shma gaplar. Ochiq va yopiq strukturali bog‘langan qo‘shma gaplar. Erkin va turg‘un pozitsiyali bog‘langan qo‘shma gaplar. Bog‘langan qo‘shma gap komponentlarining teng bog‘lovchilar shu bog‘lovchi vazifasidagi yuklamalar, bo‘lsa, esa yordamchilari orqali birikishi. Ularning semantik xususiyatlari.

Ergashgan qo‘shma gaplar. Bosh va ergash gaplarning shakllanishi va intonatsion jihatdan farqi. Ergash gapni bosh gapga biriktiruvchi vositalar: ergashtiruvchi bog‘lovchilar, havola bo‘laklar, ko‘makchili qurilmalar, yuklamalar, fe‘l shakllari. Ergash gaplarni tasnif qilishda ularning mazmuni, tuzilishi va sintaktik xususiyatining asosga olinishi.

Havola bo‘lakli qo‘shma gaplar. Bir havola bo‘lakli va ikki havola bo‘lakli qo‘shma gaplar. Simmetrik va asimmetrik havola bo‘laklar. Havola bo‘lakli qo‘shma gapning turlari: ega ergash gapli qo‘shma gap, kesim ergash gapli qo‘shma gap, to‘ldiruvchi ergash gapli qo‘shma gap, aniqlovchi ergash gapli qo‘shma gap, hol ergash gapli qo‘shma gaplar va ularning mazmuniy-shakliy qurilishi.

Hol ergash gapli qo‘shma gaplar. Payt ergash gapli qo‘shma gap, o‘lchov-

daraja ergash gapli qo'shma gap, chog'ishtirish-o'xshatish ergash gapli qo'shma gap, o'rin ergash gapli qo'shma gap,

Shartlanganlik munosabatli qo'shma gaplar va uning turlari: sabab ergash gapli qo'shma gap, maqsad ergash gapli qo'shma gap, shart ergash gapli qo'shma gap qo'shma gap, to'siqsiz ergash gapli qo'shma gap, natija ergash gapli qo'shma gap.

Bog'lovchisiz qo'shma gap. Bunday qo'shma gap komponentlarini biriktiruvchi asosiy vosita intonatsiya yekanligi. Tarkibidagi qismlarning munosabatiga ko'ra bunday qo'shma gapning turlari: bog'langan qo'shma gapga sinonim tur, ergashgan qo'shma gapga sinonim tur. Birinchi turda tenglanish intonatsiyasidan tashqari umumbo'laklar (payt hollari, aniqlovchilar)ning komponentlarini biriktirishdagi roli. Ergashgan qo'shma gaplarning yordamchilarsiz qo'llanish holatlari. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar punktuatsiyasi.

Murakkab qo'shma gaplarning uch va undan ortiq qismdan tashkil topishi. Murakkab qo'shma gaplarning komponentlari orasidagi munosabatga ko'ra turlari: tenglanish orqali tuzilgan murakkab qo'shma gaplar, ergashish orqali tuzilgan murakkab qo'shma gaplar (bir necha ergash gapli, bir necha bosh gapli qo'shma gap). Tenglanish va ergashish orqali tuzilgan murakkab qo'shma gaplar (aralash qo'shma gaplar).

Tenglanish orqali tuzilgan murakkab qo'shma gaplarda biriktiruvchi vositalar: teng bog'lovchilar, yuklamalar va tenglanish intonatsiyasining mavjudligi.

Tenglanish va ergashish orqali birikadigan murakkab qo'shma gaplar (aralash tipdagi qo'shma gaplar). Ular tarkibidagi komponentlarni biriktiruvchi vositalar.

Ko'p komponentli qo'shma gap komponentlarining murakkab holda kelishi, ularning boshqa komponentlar bilan munosabati va turli ko'rinishlari.

O'zga gapli qurilma. O'zga gapning turlari: ko'chirma gap, o'zlashtirma gap. Ko'chirma gaplarning tuzilishi: muallif gapi va ko'chirma gap. Ko'chirma gapning so'z, gap yoki bir necha gaplardan tashkil topishi.

Muallif gapi tarkibida kesim vazifasida keluvchi nutq fe'llari. Ko'chirma va muallif gaplarining turli tartibda kelishi.

O'zlashtirma gap. O'zlashtirma gap bilan ko'chirma gapning farqi va o'xshash tomonlari. Ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gapga aylantirishda yuz beradigan o'zgarishlar.

Punktuatsiya. Punktuatsiya haqida tushuncha. O'zbek tili punktuatsiyasi asoslari. Tinish belgilarining turlari va ishlatilish qoidalari.

O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI FANI BO'YICHA MAVZULAR

Mumtoz adabiyot istilohi, uning ma'no ko'lami. Sharq xalqlari mumtoz adabiyotida mushtaraklik va o'ziga xoslik, o'zaro ta'sir masalalari. O'zbek mumtoz adabiyoti Sharq adabiyoti kontekstida. Mumtoz adabiyotda sujetlarning, janrlarning ko'chishi va o'zbek mumtoz adabiyotida qat'iylashuvi.

Mumtoz adabiyotdagi davriy o'zgarishlar va bularning sabablari. O'zbek mumtoz adabiyotini davrlashtirish masalasi. Adabiy-badiiy hodisalar davrlashtirishning muhim mezonlari. Adabiyot tarixi jamiyat tarixi tarkibida. Adabiyotshunoslar tomonidan taklif etilgan davrlashtirish prinsiplari.

Mumtoz adabiyotni o'rganishning metodologik asoslari va uni tadqiq etish metodlari. Shu kungacha qo'llanilgan tadqiqot metodlari. Adabiy tahlil usuli. Qiyosiy-tarixiy metodning mumtoz adabiyotni o'rganishdagi afzalliklari. Mumtoz badiiy asarlarni talil qilishda yangi metod va yondashuvlar.

Mumtoz adabiyotning paydo bo'lishi va shakllanishi. Mumtoz adabiyotning paydo bo'lishi va shakllanishidagi asosiy omillar: mifologiya va uning yozma adabiyot taraqqiyotidagi o'rni, xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyot munosabati, tarjima adabiyoti va mumtoz adabiyot. Islomgacha bo'lgan turli diniy oqimlar (zardushtiylik, moniylik, buddaviylik va b.)ning yozma adabiyot yuzaga kelishidagi roli.

Mumtoz adabiyotning falsafiy-nazariy manbalari, jumladan, diniy manbalar, irfon va falsafa, tarix va boshqa ijtimoiy fanlar bilan aloqadorligi. Qur'oni karim va hadisi sharif badiiy ijodning bosh manbasi sifatida. Didaktik adabiyot va uning vakillari.

Arabiy va forsiy tillardagi adabiyotning turkiy tildagi mumtoz adabiyotning shakllanishidagi roli.

Turonzamindagi XI asrgacha bo'lgan forsiy tildagi adabiyotning turkiy adabiyot taraqqiyotidagi roli.

Tasavvuf. Tasavvuf maktablari. Uning san'at va adabiyotga ta'siri. Mumtoz adabiyotning taraqqiy etishida tasavvufning o'rni va ahamiyati.

Forsiy va turkiy shoirlar (adiblar) ijodidagi mushtarak jihatlar. Adabiy ta'sir masalasi. Zullisonaynlik an'analari. Har ikki tilda yaratilgan mumtoz asarlarda yagona adabiy prinsip va me'yorlarga amal qilinishi.

Didaktik asarlar. Didaktik asarlar ("Kalila va Dimna", "Chor Darvesh", "Guliston" (Sa'diy), "To'tinoma", "Bahoriston" (Jomiy) va boshqalar); **badiiy bo'lmagan asarlar, jumladan, geografiyaga oid** ("Ajoyib ul-buldon", "Hudud ul-olam...", "Safarnoma", "Qandiya" va boshqalar), **tarixga oid** ("Ta'rix Bal'amiy/ "Tarixi Tabariy" tarjimalari, "Tarixi Buxoro"(Narshaxiy), "Ta'rix Bayhaqiy" va boshqalar) va boshqa turli mavzulardagi asarlar, jumladan, **tazkiralalar va siyosiy-axloqiy mavzudagi asarlar** ("Qobusnoma" (Kaykovus), "Siyosatnoma" (Nizom ul-mulk), "Navro'znoma" (Umar Hayyom), "Chahor maqola" (Nizomiy Aruzi Samarqandi), "Hadoyiq us-sehr fi daqoyiq ush-she'r" (Rashididdin Vatvot), "Tazkirat ul-avliyo" (Attor), "Fi hi mo fih" (Rumiy) "Lubob ul-albob" (Avfiy) , "Tazkirat ush-shuro" (Davlatshoh Samarqandiy) va boshqalar.)

Mumtoz she'r. Mumtoz she'rning mumtoz nasrdan farqli jihatlari. Mumtoz she'rning shakllanishi. Aruz she'r sistemasi haqida umumiy ma'lumot. Qofiya va bayt, qofiya va band. An'ana va o'ziga xoslik – mumtoz adabiyotdagi eng muhim adabiy hodisa. O'zbek mumtoz adabiyotining tur va janrlari. Lirik tur. Lirik turga mansub janrlar. O'zbek mumtoz adabiyotida ularning barqarorlashi va tadrijiy takomili. Devon, bayoz va tazkiralalar – mumtoz adabiyotni o'rganishda muhim manbalar. Devon, bayoz tuzish va tazkirachilik tarixidan.

Mumtoz adabiyotda an'anaviy mavzu va obrazlar. O'zbek mumtoz adabiyotida obrazlar tizimi (lirik asar, epik asar misolida). An'anaviy obrazlar

genezisi va rivojlanishi tadriji. Sharq adabiyoti uchun umumiy bo'lgan obrazlar tasnifi va tavsifi. Ramz va timsollar olami. O'zbek mumtoz adabiyotida majoz tarixi. Badiiy matn talqinida ramz va timsollarning muayyan adabiyotgan daxldorligini e'tiborga olish zarurati. Rang, son, tabiat ashyolariga oid ramziy timsollar va ularning ma'nolari.

Epik she'riyat. Xamsachilik an'anasi. Firdavsiy va epik she'riyat. "Xamsa" – mumtoz janr sifatida. Xamsanavislik an'anasining tadrijiy takomili. Xamsanavislik: mavzu, g'oya va obrazlar tizimi. "Xamsa"lardagi mushtarak va farqli jihatlar.

Mumtoz adabiyotda badiiy uslub tushunchasi. Mumtoz adabiyotdagi asosiy uslubiy yo'nalishlar. Xuroson, iroq, hind uslublari. Uslublar sintezi.

Mumtoz adabiyotda she'riy va nasriy uslub, "xos uslub" va "omma uslubi" haqida tushuncha (Miyon Buzruk). Mumtoz adabiyotda "turkiston uslubi" va "xuroson uslubi"ning shakllanishi va rivoji.

Xalq kitoblarining paydo bo'lish sabablari va adabiy jarayon. Xalq kitoblari va ijodkor shaxsiyati. Xalq kitoblarida folklor syujetlari va individual ijod o'rtasidagi munosabatlar. "Xalq adabiyoti" tushunchasi.

Eski o'zbek tilidagi filologik asarlar va ularning mumtoz adabiyotni o'rganishda muhim manbalar ekanligi. Misr mamluklar davlatida eski o'zbek tilida yaratilgan filologik asarlar: Abu Hayyonning "Kitob al-idrok li-lison al-atrok" (XIII – XIV asrlar). O'rta va Markaziy Osiyoda yaratilgan filologik asarlar: To'le' Imon Hiraviyning "Badoi' al-lug'at", "Abushqa"lug'atlari, ularda o'zbek mumtoz adabiyoti manbalaridan berilgan ma'lumotlarning muhimligi; Muhammad Yoqub Chingiyning "Kelurnoma", Muhammad Rizoning "Muntaxab ut-tavorix", Mehdixonning "Sanglox", Fatxali Kojarning "Lug'ati atrokiya" va b. lug'atlarning o'zbek mumtoz adabiyoti tarixi uchun muhim manba ekanligi.

Adabiy ilmlar va ularning tasnifi. She'r ilmi mohiyati. Ilmi bade', ilmi maoniy, ilmi balog'a, ilmi aruz, ilmi qofiya va Sharq adabiyotshunosligi. Ilmi adab – Sharq adabiyotshunosligining asosi. Forobiyning she'r, uning hosil bo'lish qonuniyatlari va insoniyat tomonidan qay darajada, qay holatda qabul qilinishi ilmi adabning o'ziga xos ko'rinishi ekani.

O'zbek mumtoz adabiyotining dunyo miqyosida o'rganilishi. O'zbek mumtoz adabiyotining Rossiyada va Yevropada o'rganilish tarixi: "Qutadg'u bilig", "Devonu lug'atit-turk", "O'g'uznoma" va boshqa asarlar rus sharqshunoslari (XIX-XX asrlar) diqqat markazida. Abulg'ozining "Shajarai turk" asari tarjimasini, nashrlari va o'rganilishi (XVIII–XIX asrlar). O'zbek mumtoz adabiyotiga oid boshqa manbalarning tarjimalari va faksimil nashrlari. O'zbek mumtoz adabiyoti manbalarini o'rganishda I. Berezin, N.Katanov, B.A.Dorn (XIX asr), V.V.Bartold, YE.E.Bertels, I.V.Stebleva va boshqa sharqshunoslarning xizmatlari. Dunyo adabiyotshunosligida mumtoz adabiyotga munosabat.

O'zbek mumtoz poetikasi asoslari. Mumtoz poetika haqida umumiy ma'lumot. Ilmlar uchligi va ularning mumtoz poetikani o'rganishdagi ahamiyati. Adabiy va tarixiy manbalarda mumtoz poetikaga doir qarashlar. Balog'at ilmi.

Uning tarixi va tadrijiy takomili. Fasohat. Ilmi bayon. Balogʻat ilmida tashbeh. Haqiqat va majoz. Istiora. Arabiy manbalarda balogʻat ilmiga berilgan baho.

Forsiy manbalarda balogʻat ilmi. Balogʻat ilmining sof adabiyotshunoslikdagi talqini. Ilmi aruz, ilmi badeʻ, ilmi qofiya.

Mumtoz adabiyotda adabiy turlar va sheʻr navʻlari. Adabiy tur tushunchasi va uning ifodalanish shakllari (nasr, nazm). Baytli sheʻr shakllari. Gʻazal, qasida va mustazod janrlari. Kichik lirik janrlar tavsifi.

Musammatlarning shakliy xususiyatlari. Mustaqil va tazmin musammatlar. Taxmis va tasdislarning yaratilish xususiyatlari.

Ham bayt, ham bandga asoslangan sheʻr shakllari. Masnaviy -voqeaband sheʻr uchun asos sifatida. Tarkibband va tarjiʻband haqida umumiy maʼlumot.

Aruz nazariyasi asoslari. Choʻziq, qisqa va oʻta choʻziq hijolar haqida maʼlumot. Asliy va tarmoq ruknlar. Taqtiʻ va uning aruz nazariyasidagi oʻrni. Vazn va mumtoz janrlar munosabati. Tuyuq, ruboiy va mustazod janrlarining vazn xususiyatlari.

Ilmi badiʻ yoki badiiy sanʼatlar talqini. Ilmi badiʻ yoki badiiy sanʼatlar talqini. Mumtoz manbalarda ilmi badiʻga doir qarashlar. Badiiy sanʼatlar tasnifi. Lafziy sanʼatlar haqida maʼlumot. Ularning oʻziga xos xususiyatlari. Takrorga asoslangan sanʼatlar. Maʼnaviy sanʼatlar haqida maʼlumot. Ularning sheʻr tashbeh, talmeh, mubolagʻa, tanosub mumtoz adabiyotning tayanch badiiy vositalari sifatida. Lafzi-yu maʼnaviy sanʼatlar. Ularning ham shakl, ham maʼnoga aloqador ekanligi. Tajnis, iyhom, tazod sanʼatlarining mumtoz sheʻriyatdagi oʻrni.

Ilmi qofiya haqida maʼlumot. Mumtoz manbalarda ilmi qofiyaga doir qarashlar. Qofiya unsurlari. Mumtoz qofiya turlari. Qofiyaning oʻzak tarkibiga koʻra farqlanuvchi turlari. Mujarrad, muassas, murdaf va muqayyad (qaydli) qofiyalar. Qofiyaning tuzilishiga koʻra turlari. Mutlaq va muqayyad qofiyalar.

Qadimgi davr adabiyoti. Eng qadimgi davrlardan X asrgacha boʻlgan adabiyot. Turonzamin qadimgi madaniy markazlardan biri sifatida. Qadimgi davrlardan eramizning VIII asrigacha Markaziy Osiyoda yashagan xalqlar madaniyati, yozuvi va sanʼati. Qadimgi shumer madaniyati va turkiy qavmlar tarixi. “Bilgamish” dostonining turkiy xalqlar eposiga munosabati.

Eng qadimgi ogʻzaki adabiy yodgorliklar. Ularning asosiy manbalari. Mif va afsonalar qadimgi hayot aksi, tabiat haqidagi tasavvurlarining badiiy ifodasi ekanligi. Mif va afsonalarda badiiy xayolotning oʻrni. Xitoy manbalarida Markaziy Osiyo xalqlariga doir maʼlumotlar.

Qahramonlik eposi. Markaziy Osiyo eposlar vatani ekanligi. Sharq epik adabiyotining mashhur qahramonlari. Qadimgi qahramonlik eposining yunon manbalari orqali yetib kelgan namunalari: «Toʻmaris», «Shiroq». Xalq qissalari haqida maʼlumot. Iskandar toʻgʻrisidagi qissalar.

Uygʻur yozuvidagi yodgorliklar. «Devonu lugʻotit turk» asari orqali bizgacha yetib kelgan badiiyat namunalari. Alp Ertoʻnga marsiyasi. Qadimgi afsona va qoʻshiqlar poetikasi. «Devonu lugʻotit turk»da munozara janrining ilk ildizlari. «Devon»dagi xalq maqollari poetikasi.

Moniylik mazmunidagi turkiy adabiyot. Moniy va uning ta'limoti xususiyatlari. Moniylik – zardushtiylikning mahsuli sifatida. Moniylik she'rlarining mavzui. «Xuastuanift» (Moniylarning tavbanomasi) asarining o'ziga xos xususiyatlari.

Budda mazmunidagi turkiy adabiyot. Markaziy Osiyoda buddaviylikning xos xususiyatlari. «Oltun yoruq», «Shahzoda va bars» afsonalari.

Yozma yodgorliklar

Qadimgi yodgorliklarning yozuv xususiyatlari. Ieroglifik va piktografik yozuvlar. Mixxatlar va runiy yozuvdagi ilk manbalar. «Avesto» yodgorligi (er.av.VII asr) zardushtiylikning muqaddas kitobi ekanligi. «Avesto» qadimgi mif va afsonalar majmui sifatida. Zardusht shaxsi haqidagi ma'lumotlar. Uning tarkibiy tuzilishi. Asosiy qism va Zandlar. «Avesto»ning ilmiy-tarixiy qimmati. «Avesto»ning o'rganilishi tarixidan. «Avesto» adabiy manba sifatida. Asardagi yetakchi qahramonlar va timsollar. «Avesto»ning badiiy xususiyatlariga doir.

O'rxun-Enasoy obidalari (VI-VIII asrlar) adabiy manba sifatida. Yodgorliklarning yaratilish tarixi va tarqalish o'rni. Ularning kashf etilishiga oid ma'lumotlar. Bilga xoqon yodgorligida Vatan daxlsizligi uchun kurashning aks etganligi. Kul Tegin yodgorligi. O'rxun-Enasoy toshbitiklari adabiy manba sifatida. Toshbitiklarning til xususiyatlari, adabiy qimmati. O'rxun-Enasoy yodgorliklarining janr xususiyatlari: tarixiy-qahramonlik dostonlari, qo'shiq va yig'i janrlari. Toshbitiklar va turkiy xalqlar og'zaki ijodi o'rtasidagi munosabat. O'rxun-Enasoy yodgorliklarida mifologik tasavvurlar. To'nyuquq bitigi. Unda shaxs va millat erki. Irq bitigi (Ta'birnoma) adabiy manba sifatida.

Islom madaniyatining shakllanishi va musulmon intibohi (renessansi). Somoniylar, saljuqiylar, g'aznaviylar va qoraxoniylar davrida islomiy madaniyat. Hadis to'plash an'anasi va unda turkistonlik buyuk muhaddislarning roli. Imom Buxoriy va at-Termiziy. «Al-jome'u-s-sahih» va «Shamoyili Muhammadiyya» asarlari. IX-X asrlarda arab tilining madaniy hayotga faol aralashuvi.

Arab va fors tillaridagi adabiyot. Turkiy xalqlarning arab va fors tillarida ijod etishi. Markaziy Osiyo buyuk allomalar vatani: Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino asarlarida adabiyot masalalari. Badiiy asarlar va tazkirachilik. Abu Mansur as-Solibiy va uning «Yatimatu-t-dahr» asari. Chag'oniyon adabiy muhiti.

XI-XIII asrlar adabiyoti. XI-XIII asrlarda Markaziy Osiyoda madaniy hayot. Turkiy tilning yangi adabiy bosqichga ko'tarilishi. Qoraxonlilar davrida turkiy madaniyatning taraqqiyoti. Bolasog'un va Koshg'ardagi madaniy hayot. Turkiy dostonchilik maktabining vujudga kelishi. Badiiy asarlarda Qur'oni karim va Hadisi sharif sharhlari.

Mahmud Koshg'ariy va uning “Devonu lug'oti-t-turk” asari. “Devonu lug'oti-t-turk” – adabiy manba sifatida.

Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodining manbalari. “Qutadg'u bilig” hamda ijtimoiy-siyosiy va falsafiy masalalar. Dostonda axloqiy va estetik qarashlar. Doston janrlari: masnaviy, qasida, to'rtlik va g'azal unsurlari. Asarning ahamiyati.

Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodining manbalari. Adib Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodining o'rganilish tarixi. "Hibatu-l-haqoyiq" asari. Asar mavzui va tarkibi. Hadislar asosida badiiy asar yaratish an'anasi. Asarning badiiy xususiyatlari.

Xoja Ahmad Yassaviy ijodi. Turkiy she'riyatda hikmat janrining shakllanishi. "Devoni hikmat" asari va uning tarkibi. Yassaviy izdoshlari. Sulaymon Boqirg'oniy asarlari. "Boqirg'on kitobi" mundarijasi.

XIV-XVI asrlar adabiyoti. davr madaniy hayotiga sharh. Turkistonda tasavvufning vujudga kelishi va tarqalishi. Tasavvuf tarixida irfon bosqichi. Ibrohim Adham, Shaqiq Balxiy va Imom G'azzoliy asarlari. Ilk turk mutasavviflari ijodi. Yassaviylik tariqati va uning adabiy manbalari. Kubroviyya tariqati va bu tariqatning badiiy ijodda aks etishi. Adabiy janrlar va ularning taraqqiyoti.

Nosiriddin Rabg'uziy hayoti va ijodining manbalari. Adib ijodining o'rganilish tarixidan. Payg'ambarlar tarixi asosida yaratilgan asarlar. "Qisasi Rabg'uziy" ("Qisasu-l-anbiyo") asarining tarkibi. Asar tarkibidagi hikoya va mumtoz she'riy janrlar.

Sayfi Saroyi ijodi. Shoir lirikasining mundarijasi va badiiy xususiyatlari. "Suhayl va Guldursun" dostoni. "Gulistoni bi-t-turkiy" asari. Ma'rifiy-ta'limiy adabiyot.

Haydar Xorazmiy ijodi. Shoir hayoti va ijodining manbalari. "Maxzanu-l-asror" dostoni va Nizomiy ijodiga munosabat. Dostonning kompozitsion qurilishi va syujeti.

Xorazmiy va uning "Muhabbatnoma"si. Asar tarkibi va janr xususiyatlari. **Durbek ijodi.** "Yusuf va Zulayho" dostoni. Doston muallifligi masalasi. Badiiy adabiyotda "Qissayi Yusuf" sujeti.

Qutb hayoti va ijodining manbalari. "Xisrav va Shirin" dostonining yaratilish tarixi, nusxalari. Asar syujeti, voqealar silsilasi va asosiy qahramonlari.

Atoyi ijodiy merosining o'rganilish tarixidan. Atoyining lirik merosi. Lirikasining mavzular ko'lami va timsollar olami. Atoyi she'riyatida majoz va haqiqat.

Sakkokiy hayoti va ijodining o'rganilish tarixi. Adabiy merosi. Turkiy qasidachilik taraqqiyotida Sakkokiyning o'rni. Sakkokiy lirikasining mavzulari va timsollar tizimi.

Gadoiy hayoti va ijodining o'rganilish tarixi. Gadoiyning ijodiy merosi. Gadoiy she'riyatining mavzulari, mundarijasi va janr xususiyatlari.

Lutfiyning ijodiy faoliyati. Lutfiy va Navoiy munosabatlari. Lutfiy lirikasi, janr xususiyatlari. Turkiy she'riyatda tuyuq janrining takomili. Lutfiy she'riyatida badiiy mahorat. Lutfiyga nisbat berilgan asarlar.

Husayniy lirikasining manbalari. Husayniy va Alisher Navoiy munosabatlariga doir. "Risola" asari va uning mundarijasi. Husayniy lirikasining badiiy xususiyatlari. Alisher Navoiy Husayn Boyqaro haqida.

Alisher Navoiy ijodiy merosi.

Uning turkiy xalqlar adabiyotida, umuman jahon adabiyotida tutgan o'rni.

Islam Karimovtıń «Elim dep, jurtım dep kúyip, janıp jasaw kerek» ideyasınıń milliy óz-ózin ańlawdı rawajlandırıwdaǵı áxmiyeti. Milletlerara tatiwlıq túsiniǵı. Mámlekette jasap atırǵan túrli millet wákillerine, olardıń qadriyatlarına, úrp-ádetlerine, miyraslarına, tariyxına húrmet bildiriw, olar menen doslıq, hámde insanıy qatnasıqlardı ornatiw, milletlerara tatiwlıqtı tamiynlewshi faktor hám shaxs joqarı ruwxıylıq pazıyleti.

Shaxs ruwxıylıǵın qáliplestiriwshi faktolar.

Shaxs ruwxıylıǵı hám onı qáliplestiriwde ata-ananıń juwapkershiligi. Mektepke shekemgi tálim mekemeleri, bilimlendiriw dizimi, máhálle, ádebiyat hám kórkem-óner, ǵalaba-xabar quralları, huqıqtı qorǵawshı shólkemler. Shaxs ruwxıylıǵın qáliplestiriwshi hám rawajlandırıwshi faktorlar.

Bimlendiriw dizimi shaxs ruwxıylıǵın qáliplestiriwdiń áxmiyetli faktor. Mektepke shekemgi tárbiya hám joqarı oqıw orınlarında ruwxıylıqtı qáliplestiriwdiń jolları hám metodları.

Ádebiyat hám kórkem-óner shaxs ruwxıylıǵın qáliplestiriw hám rawajlandırıwdiń áhmiyetli quralı.

Shaxs ruwxıylıǵın rawajlandırıwda mámleketlik, mámleketlik emes hám jámiyetlik shólkemlerdiń aktual wazıypaları. Ózbekstan Respublikasınıń Birinshi Prezidenti Islam Karimovtıń «Joqarı mánawiyat- jeńilmes kúsh» shıǵarmasında ruwxıylıqtı qáliplestiriw faktorları haqqındaǵı pikirleri.

Tiykargı ádebiyatlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. -Тошкент.: Ўзбекистон, 2017

2. Каримов И.А. Миллий истиқлол мафқураси - халқ эътиқоди ва буюк келажакка ишончдир. - Тошкент.: Ўзбекистон, 2000 й. 11-бет.

3. Каримов И.А. Биз танлаган йўл - демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. 11-жилд. - Тошкент.: Ўзбекистон, 2003 й.

4. Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон ҳеч кимга қарам бўлмайди. - Тошкент.: Ўзбекистон, 2005 й.

5. Каримов И.А. Бизнесинг Бош мақсадимиз жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этишидир. - Тошкент.: Ўзбекистон, 2005 й.

6. Каримов И.А. Юксак маънавият - енгилмас куч - Тошкент.: Маънавият, 2008.

7. Каримов И.А. Энг асосий мезон - ҳаёт ҳақиқатини ақс этириш. Тошкент.: Ўзбекистон, 2009.

8. Каримов И.А. Асосий вазифамиз-ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтириш. Тошкент.: Ўзбекистон, 2010.

9. Каримов. И.А.Мамлакатимизда демократик ислохотларни янада чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш концепцияси. Тошкент.: Ўзбекистон, 2010.

10. Каримов. И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. Тошкент.: Ўзбекистон, 2011й.

Sabaqlıq hám oqıw qollanbalar:

1. Отамуротов С, Раматов Ж., Хусанов С. Маънавият асослари. Ўқув қўлланма. А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. Тошкент.: 2002.

2. Умаров Э., Абдуллаев М. Маънавият асослари. Ўқув қўлланма. Тошкент.: Чўлпон номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи. -2006.

3. Имомназаров М., Саидов М. Миллий тараққиётнинг маънавий-ахлоқий асослари. Ўқув қўлланма. “Академия” Тошкент.: -2005.

4. Абдурахмонов М., Отамуротов С, Маънавий салоҳият. Ўқув қўлланма. Тошкент.: Университет. -2009.

5. Куранбоев Қ., Абдурахмонов М. Ўзбекистон Республикаси Президенти ИсламКаримовнинг “Юксак маънавият-енгилмас куч” асарини ўқитиш бўйича ўқув-услубийқўлланма. Тошкент.: -2010.

6. Ҳамдамова М. Маънавият асослари. Ўқув қўлланма. “Фан ва технология” нашриёти. Тошкент.: -2008.

Qosımsha ádebiyatlar:

1. Алиев А.. Истиқлол ва адабий мерос. Т., Ўзбекистон, 1997.

2. Отамуротов С, М.Абдурахмонов., Ш.Ризаев., Ўзбекистонда маънавият соҳасидагиислохотлар: ривожланиш босқичлари, эришилган натижалар ва истиқболи. Тошкент.:Академия-2010.

3. Махмудов Т. Мустақиллик ва маънавият. Ўзбекистон Республикаси ПрезидентиИслам Каримов асарлари асосида. - Тошкент.: Шарқ Нашриёти-матбаа акциядорликкомпанияси бош таҳририяти. - 2001 й.

4. Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар. - Тошкент.: Ўзбекистон ,2000 й.

5. Ш. Қаҳҳарова. Глобал маънавият- глобаллашувнинг ғоявий асоси. Тафаккур нашриёти. Тошкент.: -2009.

6. Отамуратов С Глобаллашув ва миллат. Тошкент.: Янги аср авлоди. 2008 .

7. Базарбаев Ж. Руўхыйлық тийкарлары Нокис Қарақалпақстан 2009

8. Базарбаев Ж. Даналығы гөззаллыққа уласқан шайыр Нокис «Билим» 2008

9. Базарбаев Ж. Әдеп философиясы Нокис Қарақалпақстан 2010

10. Базарбаев Ж. Миллий идея - жол көрсетиўши жулдыз. Н.2010

10. Базарбаев Ж. Руўхыят тийкарлары Нокис Қарақалпақстан 2018

Электрон тәлим ресурслары:

1. “Xalq so`zi” gazetasi –[www info XS. Uz](http://www.infoXS.Uz).
2. “Turkiston” gazetasi - [www turkiston sarkor. uz](http://www.turkiston.sarkor.uz).
3. “Ma`rifat” jurnali - [www ma`rifat – inform](http://www.ma`rifat-inform).
4. “Jamiyat va boshqaruv” jurnali - [www rzult academy freenet uz](http://www.rzult.academy.freenet.uz).
5. “Moziydan sado” jurnali - [www moziy dostlink. Net](http://www.moziy.dostlink.net)
6. www.mfa.uz.
7. www.press-servise.uz.
8. www.literature.uz
9. www.Ziyonet.uz.

5A111701 – Tarbiya va tarbiya nazariyasi va metodikasi (boshlang'ich tálim)

Tuzuvchi: Z.Kurbaniyazova – Ajiniyoz nomidagi Nukus DPI Boshlang'ich ta'lim kafedrası mudiri, p.f.n, dotsent

Taqrizchilar: M.Pazilova – Pedagogika kafedrası mudiri, p.f.n.,dotsenti
S.Tajbenova – Boshlang'ich ta'lim kafedrası uqituvchisi p.f.f.d.,(PhD)

Kirish

Ushbu imtixon dasturi pedagogika institutining 5A111701-«Tarbiya va o'qitishning metodikasi va nazariyasi» (boshlang'ich ta'lim) magistratura mutaxassisligi bo'yicha mutaxassislik fanlari bo'yicha sinov imtixonlari variantlari uchun mo'ljallangan bo'lib, bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari egallashi kerak bo'lgan barcha bilim, qobiliyat va ko'nikmalar majmuasini o'z ichiga oladi.

Dastur mutaxassislik fanlari bo'yicha Umumiy pedagogika, Ona tilini o'qitish metodikasi, Matematika o'qitish metodikasi, Tabiyatshunoslik va uni o'qitish metodikasi, Mehnat va uni o'qitish metodikasi fanlari bo'yicha nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni aniqlashdan iborat bo'lgan mavzular va savollar to'plamini qamrap olgan.

“Umumiy pedagogika” fani

“Umumiy pedagogika” fani Ta'lim-tarbiya nazariyasi, Pedagogika tarixi, Pedagogik mahorat va ijtimoiy pedagogika bo'limlarini o'z ichiga oladi.

Ta'lim-tarbiya nazariyasi

Pedagogika fan sifatida. Pedagogika fani, uning predmeti, metodologiyasi, ilmiy-tadqiqot obyekti, metodlari. “Ta'lim to'g'risida Qonun” va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. Ta'limning uzviyligi va uzluksizligi. Uzluksiz ta'lim. Pedagog kadr tavsifnomasi. Pedagogika fanining maqsadiga ko'ra tarmoqlari va boshqa fanlar aloqasi. Pedagogik antropologia. Shaxs haqida tushuncha. Xorijiy mamlakatlar ta'lim-tarbiya sohasi yuzasidan qisqacha izoh.

Rivojlanishning asosiy qonuniyatlari. Shaxsiy rivojlanish jarayoni shaxs shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar muhit, irsiyat, ta'lim tarbiya, shaxsiy faoliyat rivojlanishning yosh va individual xususiyatlari. Yosh bosqichlari. Akseleratsia rivojlanishning turli tumanligi individualligi

Didaktika va tarbiya nazariyasi. Didaktikaning vazifalari. Ta'limning rivojlanish yo'nalishlari: uzluksiz ta'lim konsepsiyasi, texnologiya ta'lim paradigmalari.

Ta'lim tamoyillarini tanlashga umumiy yondoshish. Didaktik prinsiplar (tamoyillar). O'qitish jarayoni, o'qitishning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalari. Ta'limning psixologik, fiziologik asoslari.

Ta'limning mazmuni. O'quv jarayonning mazmuni. Maktabning o'quv rejasi. Dastur va dasturlarning mazmuni, maqsadi, funktsiya tizimi. Ta'lim tamoyillari. Tamoyil tushunchasi.

Ta'lim metodlari, vositalari va texnologiyalari. Texnologiyaning nazariy belgilari. Pedagogikada texnologiyaning maqsadlari, darslarda rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyasi. Interfaol ta'limning maqsad va vazifalari.

O'quv jarayonini tashkil etish turlari va shakllari. O'quv jarayonini tashkil etish haqida tushuncha. Dars tuzilmasi, uning qismlari va turlari. Dasturlar. Ta'limda sinf-dars tizimining vujudga kelishi. Dars – maktabda o'quv ishlarini tashkil qilishning asosiy shakli. Darsga qo'yiladigan talablar. Dars tizimi strukturasi elementlari va tiplari. Darslarning tiplari. Darsga qo'yiladigan psixologik talablar. Darslarning turlari. O'qituvchining darsga tayyorgarligi.

Ta'lim texnologiyalarining mazmuni. Ta'limda muammoli va axborot texnologiyalardan foydalanish. Muammoli ta'lim metodlari. Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalari o'rni.

Ta'lim turlarining o'ziga xos xususiyatlari. Kreativ va muammoli ta'lim. Kreativ va muammoli ta'limning mohiyati. O'quvchilar ta'limiga muammoli yondoshishning xususiyatlari. Kreativ va muammoli ta'limning maqsadi. Muammoli vaziyatlarni yaratish va hal qilishning yo'llari. Muammoli ta'lim metodlari.

Tarbiya jarayoni. Tarbiya usullari haqida tushuncha. Tarbiya usullarining xilma-xilligi. Kichik maktab o'quvchilari bilan olib boriladigan tarbiyaviy tadbirlar turi, mazmuni ahamiyati. Tarbiya usullarining tasnifi. Tarbiya jarayonida innovatsiyalar.

Tarbiya qonuniyatlari va tamoyillari. Tarbiya qoidalari haqida tushuncha. Tarbiyaning turmush bilan bog'liqligi, diniy va dunyoviy xarakteri.

Oila tarbiyasi. Oilaning tasnifi, ularning rivojlanish yo'nalishlari. Oilaviy tarbiyaning psixologik, pedagogik asoslari. Oilaviy tarbiyaning an'anaviy metodlari. Bola tarbiyasida mahalla, maktab, oila hamkorligi. Oilada farzand tarbiyasidagi sharqona odatlar, bolalarni maktabga tayyorlashda ota-ona ma'suliyati.

Ma'naviy-axloq tarbiya. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsad va vazifasi. Sharq pedagog allomalarining ma'naviy-axloqiy tarbiya haqidagi fikrlari. Axloqiy tarbiyada xalq pedagogikasi materiallaridan foydalanish.

Huquqiy tarbiya. Huquqiy tarbiyaning mazmuni. Huquqiy tarbiyaning maqsad va vazifalari. Huquqiy ta'lim-tarbiyani anglash. Huquqiy davlatni tuzishda huquqiy tarbiyaning ro'li. O'quv jarayonida o'quvchilarning huquqiy tarbiyasi.

Iqtisod va mehnat tarbiyasi. Iqtisod va mehnat tarbiyasining maqsad va vazifalari. Iqtisod va mehnat tarbiyasining boshlang'ich sinflarida o'qitiladigan fanlar bilan bog'liqligi. Iqtisodiy ta'lim va tarbiyaning inson kamolotidagi ahamiyati. Sharq mutaffakirlari iqtisod va mehnat tarbiyasi haqida.

Ekologik va nafosat tarbiyasi. Ekologik tarbiya, bugungi kunning dolzarb masalasi ekanligi. Ekologiyaning inson hayotida tabiatni saqlashdagi o'rni. Bolalarda tabiat o'simlik va jonivorlar dunyosiga muhabbatni tarbiyalash ularni tabiatni avaylashga o'rgatish.

Jismoniy tarbiya. Jismoniy tarbiya inson salomatligini mustahkamlovchi omil ekanligi. Jismoniy tarbiyaning mazmun mohiyati, maqsad va vazifasi.

Boshlang'ich maktabda badan tarbiya mashg'ulotlarni tashkil etish yo'llari. Sharq mutafakkirlari jismoniy tarbiyaning ahamiyati haqida.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar. Sinf jamoani tashkil etish texnologiyasi Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning mazmuni va funksiyalari. Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning talablari.

Pedagogika tarixi

Pedagogika tarixi kursning maqsad va vazifasi. Qadimgi davrlarda madaniyat va pedagogikaning rivojlanishi. XIV-XV asrlarda Movarounnaxrda madaniyat va pedagogikaning yaratilishi. Pedagogika tarixi ijtimoiy, nazariy va amaliy fan ekanligi. Tarbiyaning kelib chiqishi, ijtimoiy va tarixiy taraqqiyoti. Qadimgi Gretsiyada ta'lim tarbiya. Ta'lim va tarbiyada xalq og'zaki ijodi.

VII-IX asrlarda ta'lim tarbiya. Qur'oni Karimda, Muhammad Mustafos.a.v.payg'ambarimizning hadislarida komil inson tarbiyasi. Hadisning paydo bo'lishi Hadis to'plamining asosiy yo'nalishi.

Sharq uyg'onish davrida ta'lim-tarbiya

Sharq uyg'onish davrining o'ziga xos xususiyatlari. Al-Xorazmiy didaktikasi. Abu Nasr Forobiy ta'lim-tarbiya haqida. Abu Rayxon Beruniyning pedagogik va ijtimoiy falsafiy qarashlari, yaratgan asarlari va undagi inson kamolotiga oid g'oyalar.

Temuriylar davrida madaniyat ta'lim-tarbiya masalalari. Movarounnaxrda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning tarixiy rivojlanishi. Temur shaxsi. Temur saltanatining vujudga kelishi. Temurning "Tuzukot" asaridagi tarbiyaviy g'oyalar. Mirzo Ulug'bekning hayoti va ijodiy faoliyati.

A.Navoiyning ijodi va ma'rifatparvarlik faoliyati. A.Navoiyning hayoti, ma'rifatparvarlik, faoliyati, ijtimoiy – falsafiy dunyoqarashi. A.Navoiyning ta'lim-tarbiya haqidagi ta'limoti "Mahbub-ul qulub" asarida tarbiya muammosini qo'yilishi.

XIX-asrning oxiri XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy pedagogik fikrlar. Turkiston o'lkasidagi ma'rifatparvar olim va shoirlarining hayoti ma'naviy merosining tarbiyaviy ahamiyati. Dastlabki maktablarning vujudga kelishi ularning mazmuni. Jadidlik oqimi namoyondalari: Ismoil Gaspirali, A.Munavvarqori,

A.Fitrat, M.Bexbudiy, A.Avloniylarning pedagogik me'rosi.

Chet-el va Rossiyadagi ilg'or pedagogik g'oyalar. Rus pedagog olimlarning ilg'or pedagogik qarashlari. K.D.Ushunskiyning pedagogik merosi. Rivojlangan xorijiy davlatlardagi ta'lim-tarbiya, maktab va maorif taraqqiyotining asosiy yo'nalishlari. AQShda ta'lim tizimini tuzilishi va o'ziga xos xususiyatlari. Yaponiyada ta'lim-tarbiya va uning o'ziga xos xususiyatlari. Fransiyada ta'lim tizimi. Germaniyada ta'lim tizimini rivojlanishi. Rivojlangan xorijiy davlatlar va mustaqil O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimidagi o'zaro hamkorlik masalalari.

Pedagogik mahorat va ijtimoiy pedagogika

Pedagogik mahorat fanning umumiy asoslari. Pedagogik mahorat haqida tushuncha, uning o'qituvchi faoliyatidagi o'rni va ahamiyati. O'qituvchi mehnati,

uning o'ziga xos xususiyatlari va ijtimoiy ahamiyati. Mustaqil O'zbekiston sharoitida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayorlash milliy dasturi" da o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar.

Pedagogik fikr tarixi va maktab amaliyotida o'qituvchi mahorati masalalari. Eng qadimgi davrlardan XII asrgacha bo'lgan davrlarda o'qituvchi – ustoz, shogird va ularning jamiyatdagi o'rni, mahorat haqidagi nazariyalar. Sharq donishmandlari va mutafakkirlaridan Kaykovus, Al-Xorazmiy, A.Farobiy, Ibn Sino, Yusuf Xos Hojib, M.Ulug'bek, A.Navoiy va boshqalarning ijodiy meroslarida mudarrisni tanlash, ularga qo'yiladigan talablar.

Pedagogik qobiliyat, qobiliyatning psixologik-pedagogik tasnifi. Pedagogik qobiliyatning asosiy turlari. Empatiya va persektiv qobiliyatlar. O'qituvchining irodasi, sabr-toqat, maqsadga intilish, o'z maqsadiga intilish, o'z maqsadiga erishishiga, ahdigga qat'iy ishonch, o'z-o'zini idora qilish va boshqacha ta'sir o'tkazish qobiliyati; his-tuyg'usi, kayfiyatini boshqara olishi, o'z zimmasiga javobgarlikni o'z bilishi, o'zida ijobiy holatni tashkil eta olish va boshqa qobiliyatlar. Boshlang'ich sinf o'qituvchisida shakllanishi va rivojlanishi zarur bo'lgan tashkilotchilik, kommunikativ, bilish va anglash qobiliyatlari.

Muloqot pedagogik mahoratning namoyonbo'lishidir. Ta'limda turli xildagi muloqotni tashkil etishda milliy madaniy asoslar va umuminsoniy qadriyatlar ustivorligi Sharqona tarbiya va uning muloqotga ta'siri. Muloqotga kirishishda o'zbek urf -odatlari, rasm-rusum va udumlar, ular haqidagi afsona, rivoyat, hikmatlardan foydalanish va boshlang'ich ta'lim tizimida ularni tatbiq etish usullari. Milliy madaniyatning muloqotga ta'siri.

Pedagogik nazokat va pedagogik odob-axloq. Pedagogik nazokat masalalarining tarixiy taraqqiyoti. Pedagogik nazokatning vazifasi. Pedagogik nazokatning me'yori: ixtisos sohasidagi burch, pedagogik adolat, ixtisosga doir vijdon va izzat- nafs, pedagogik oriyat.

Pedagogik texnika haqida tushuncha. Pedagogik texnikani shakllantirish uslublari. Pedagogik texnika vositasi – verbal va noverbal kommunikatsiya. Pedagogik texnikaning tarkibiy qismlari: O'qituvchining o'z xulqini, xatti-harakatlari, fe'l-atvorini boshqara olish qobiliyati bilan bog'liq bo'lgan ko'nikmasi; ijtimoiy- persektiv qobiliyati, nutq texnikasi.

Pedagogik faoliyatda uchraydigan qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar. Pedagogik jamoa, o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi, o'qituvchilar va ota- onalar jamoasi o'rtasida uchraydigan nizolar, ularni oldini olishda o'qituvchining pedagogik odobi, madaniyati va pedagogik bilimi.

Maktabshunoslik. O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimi haqida tushuncha. Ta'lim tizimini boshqarish. Maktab ishini boshqarish va unga rahbarlik qilish. Maktabning pedagogik jamoasi.

Ijtimoiy pedagogika faoliyat pedagogika fani sohasi sifatida. Ijtimoiy pedagogikaning tadqiqot ob'ekti va predmeti. Ijtimoiy pedagogikaning tamoyillari. Ijtimoiy pedagogikaning kategoriyalari. Ijtimoiy pedagogika fanining paydo bo'lishi va rivojlanishi.

Ijtimoiylashuv omillari va mexnazimlari. Shaxsni o'zini boshqarish mexanizmlari. Ta'lim-tarbiya bola (o'quvchi) shaxsni ijtimoiylashtirish omili sifatida. Bola (o'quvchi) shaxsning ijtimoiy sifatlari. Bola (o'quvchi) shaxsning ijtimoiylashuvi masala yuzasidan muammoli vaziyat.

Oila bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat. Vasiylik va homiylik. Ijtimoiy pedagogik nuqtai nazardan oila turlari. Ijtimoiy pedagogning oilalar bilan olib boradigan ishlari shakl, metod va vositalari. Yetimlikning kelib chiqishi sabablari. Vasiylik va homiylik tushunchasi. Bola asrab olgan oila bilan olib boriladigan ijtimoiy-pedagogik faoliyat.

Deviant xulq –ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida. Me'yori va me'yordan og'ish: tushuncha va tavsif. Me'yordan og'ish turlari. Deviyatsiya turlari. O'smirlarda deviant xulq-atvorning kelib chiqish sabablari.

Jinoyatchilik bolalarda g'ayriqonuniy hati-xarakterning namoyon bo'lishi shakli sifatida. Voyaga yetmaganlar jinoyatchilik muammosi. Voyaga yetmagan xuquq buzarlari uchun maxsus o'quv tarbiya muassasalari. Voyaga yetmagan xuquq buzarlari bilan olib boriladigan ijtimoiy pedagogik faoliyat

Zamonaviy maktab o'qituvchisining vazifalari. Pedagogning kasbiy fazilatlari. Pedagogik mahorat. Pedagoglik faoliyatida ijodkorlik. Psixologik - pedagogik bilimlar integratsiyasi. Ta'lim tizimi boshqaruvi.

Ta'lim tamoyillari. Tamoyil tushunchasi. Tamoyillarni tanlashga umumiy yondoshish. O'qitishning etakchi qoidalari. Ilmiylik tizimlilik, izchillik qoidasi. Ta'limning amaliyot bilan bog'liqligi qoidasi. Ta'limda omillik va faollik qoidasi. Tushunarlilik va mustahkamlik qoidasi. Ko'rsatmalilik qoidasi.

O'quv jarayonini tashkil etish shakllari. Ta'lim metodlari. O'quv jarayonini tashkil etishning shakllari haqida tushuncha. Ta'lim shakllari. Dars tuzilmasi qismlari va turlari. Dars turlari. Integrativ dars. O'quvchining darsga tayyorgarligi. Ta'lim metodlarining klassifikatsiyasi. Ta'lim metodlarining mohiyati va mazmuni. Insonparvarlik ruhida tarbiyalashga individual yondashish. Tarbiyaviy ta'sirning birligi.

ONA TILI O'QITISH METODIKASI

Ushbu dastur ona tili o'qitish metodikasining tarixi va rivojlanishi, ona tili ta'limi sohasini tashkil etish shakllari va mazmuni, o'qitish usullari kabi masalalarni qamrab olgan. Ushbu fan 5111700–Boshlang'ich ta'lim va sport – tarbiyaviy ish bakalavriat ta'lim yo'nalishida tahsil olayotgan talabalarga “Ona tili o'qitish metodikasi” kursi sifatida o'qitiladi.

1.1 Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fanining predmeti va vazifalari. Ona tili o'qitish prinsiplari, ona tili o'qitish metodikasining tekshirish usullari.

II. Savod o'rgatish metodikasi.

2.1 Savod o'rgatish metodikasining maqsad va vazifalari. Savod o'rgatish metodikasining ilmiy, psixologik va lingvistik asoslari.

2.2 Savod o'rgatishda hozirgi zamon analiz-sintez tovush metodi. Bolalarning savod o'rgatishga tayyorgarligini o'rganish.

2.3 Savod o'rgatish jarayoni bosqichlari. Savod o'rgatishda tayyorlov davri, bu bosqichdagi o'qish va yozuv darslarining mavzulari hamda ish turlari.

2.4 Savod o'rgatishda mashq turlari. Savod o'rgatishda nutq o'stirish.

2.5 Savod o'rgatish davrida boshlang'ich yozuvga o'rgatish. Savod o'rgatish davrida o'qish va yozish darslari.

III. Husnixatga o'rgatish metodikasi.

3.1 Husnixatga o'rgatishning maqsad va vazifalari, ahamiyati.

3.2 Yozuvlar tarixidan ma'lumot.

3.3 Husnixatga o'rgatish tarixidan ma'lumot.

3.4 Husnixatga o'rgatishning gigiyenik shartlari.

3.5 Yozuv materiallari va qurollari.

3.6 Husnixatga o'rgatish tamoyillari.

3.7 Husnixatga o'rgatish usullari.

3.8 1-4 sinflarda husnixat darslari.

IV. Sinfda o'qish metodikasi.

4.1 Sinfda o'qish darslarining ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyati va vazifalari. O'qish darslarining tarbiyalovchi imkoniyatlari. O'qish malakasi haqida tushuncha.

4.2 O'qish malakalarining sifatlari: tez, ongli, ifodali o'qish. O'qish malakalarini shakllantirish jarayonini takomillashtirish yo'llari. Ifodali o'qish metodikasining asoslari.

4.3 Boshlang'ich sinflarda badiiy asarni tahlil qilish. Badiiy asarni tahlil qilishning adabiy asoslari. Kichik yoshdagi o'quvchilarning badiiy idrok etishdagi psixologik xususiyatlari. Boshlang'ich sinflarda badiiy asar ustida ishlash jarayoni.

4.4 Har xil janrdagi asarlarni o'qitish metodikasining o'ziga xos xususiyatlari. Ertakni o'qish metodikasi. O'quvchilarni ertak janri bilan tanishtirish. O'quvchilarni ertakni o'qishga tayyorlash.

4.5 Hikoya janridagi asarni o'qitish metodikasi.

4.6 She'riy nutqning xususiyatlari. She'rni tahlil qilish uslubi. She'rni o'qitish darsida asosiy ish turi ifodali o'qish ekani. Lirik she'rni o'qishga tayyorlash.

4.7 Masal janridagi asarlarni o'qitish metodikasi.

4.8 Ilmiy-ommabop asarlarni o'qitish metodikasi.

4.9 Topishmoq, tez aytish, maqol janridagi asarlarni o'qitish metodikasi.

Doston janridagi asarlarni o'qitish metodikasi.

V. Sinfdan tashqari o'qish metodikasi.

5.1 Bolalarning mustaqil o'qishi haqida tushuncha, uning vazifalari. To'g'ri kitobxonlik faoliyatini shakllantirish tizimiga tavsifnoma. Boshlang'ich maktabda kitobxon o'quvchilarni shakllantirish bosqichlari.

5.2 Kichik yoshdagi o'quvchilarda kitobxonlik mustaqilligini shakllantiradigan mashg'ulot va darslar qurilishini asosiy turlari.

VI. Fonetika, grammatika, so'z yasalishi va orfografiyani o'rgatish metodikasi.

6.1 Kichik yoshdagi o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirishda ona tilini o'rgatishning ahamiyati. Ona tilini o'rgatishning lingvistik asoslari. Boshlang'ich ta'limda ona tilini o'rgatish mazmuniga tavsifnoma.

6.2 Fonetika va grafika asoslarini o'rgatish usuliyati. Kichik yoshdagi o'quvchilarning ona tilini o'zlashtirishida fonetika bilimining ahamiyati. O'quvchilarda so'zning tovush va harf tarkibi haqidagi boshlang'ich tasavvurini shakllantirish.

6.3 O'quvchilarda grammatika va so'z yasalishiga oid tushunchalarni shakllantirishning metodik asoslari.

6.4 Grammatik tushunchaning mohiyati va uni kichik yoshdagi o'quvchilar o'zlashtirishidagi qiyinchiliklar. Tushunchani o'zlashtirish ustida ishlash jarayoni, uning shartli ravishda to'rt bosqichga bo'linishi.

6.5 Boshlang'ich sinflarda so'zning morfemik tarkibini o'rganish metodikasi. So'zning morfemik tarkibini o'rganish tizimi. O'zak va qo'shimcha ustida ishlashning mazmuni va metodikasi. So'z turkumlarini o'rganish bilan bog'liq holda so'zning tarkibi ustida ishlash.

6.6 So'z turkumlarini o'qitish metodikasi. Otni o'rgatish tizimi. Otning leksik va grammatik ma'nosi ustida ishlash. Otlarda son haqida tushunchani o'rganish metodikasi.

6.7 Otlarning egalik qo'shimchalari bilan o'zgarishini o'rganish.

6.8 Otlarning kelishik qo'shimchalari bilan turlanishini o'rgatish.

6.9 Boshlang'ich sinflarda sifatni o'rganish tizimi. Mavzuni o'rganishning vazifalari. Sifatni o'rganish jarayonida leksik-stilistik ishlar.

6.10 Boshlang'ich sinflarda sonni o'rganish tizimi. Mavzuni o'rganishning vazifalari.

6.11 Olmosh, kishilik olmoshlarini o'rganish metodikasi.

6.12 Boshlang'ich sinflarda fe'lni o'rganish tizimi. Fe'lni o'rganishning vazifalari. Fe'lni o'rganishda izchillik. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni o'rganish.

6.13 Fe'llarda zamon mavzusini o'rganish.

6.14 Fe'llarda shaxs-son qo'shimchalari. Fe'lni o'rganish jarayonida o'quvchilar nutqini o'stirish.

VII. Boshlang'ich sinflarda sintaksis va punktuatsiya elementlarini o'rganish.

7.1 Materiallarni sinflarga joylashtirish tizimi. O'quvchilarda asosiy sintaktik tushunchalarni shakllantirishning shart-sharoitlari. Kichik yoshdagi o'quvchilarni punktuatsiya bilan tanishtirish.

7.2 Orfografiyani o'rganish metodikasi. To'g'ri yozishni o'rgatish yo'nalishlari. Orfografik malakaning psixologik tabiati. Imlo qoidasi ustida ishlash metodikasi. Imloviy mashqlar.

7.3 Ona tilidan bilim, ko'nikma va malakalarni tekshirish. To'rt yillik boshlang'ich ta'lim "Ona tili" darslariga tavsifnoma. Ona tili darslari. Darsga umumiy tavsifnoma. Ona tili darslarining turlari va qurilishi.

VIII. Nutq o'stirish metodikasi

8.1 Kichik yoshdagi o'quvchilar nutqini o'stirish yo'llari va vazifalari. Nutq va uni o'stirish tushunchasi. O'quvchilar nutqiga qo'yilgan talablar. Nutq o'quvchilar tafakkurini o'stirishda muhim vosita.

8.2 Lug'at ustida ishlash. Maktabda lug'at ustida ishlashning asosiy yo'nalishlari. So'z ma'nosini tushuntirish metodikasi. O'qish, badiiy asarni qayta hikoyalash, materialni o'rganish, bayon va inshoga tayyorlanish bilan bog'liq holda o'quvchilar lug'atini faollashtirish yo'llari.

8.3 O'quvchilar nutqini o'stirish tizimida sintaktik ishlar. O'quvchilar egallaydigan sintaktik ko'nikmaning darajasi. Boshlang'ich sinflarda so'z birikmasi va nutq ustida ishlash. Gap ustida ishlash mashqlarining turlari.

8.4 Bog'lanishli nutq va uni o'stirish vazifalari. Bog'lanishli nutq haqida umumiy tushuncha. Bog'lanishli nutqdan mashq turlari. Bog'lanishli nutqqa oid aniq ko'nikmalar. Matn turlari.

8.5 Bog'lanishli nutq. Og'zaki qayta hikoya qilish va yozma bayon. Namunaviy matnni qayta hikoyalash va bayon yozishga qo'yilgan talablar. Qayta hikoyalash va bayonning turlari.

8.6 Bog'lanishli nutq. Og'zaki hikoya va yozma insho. Og'zaki va yozma insho turlari. O'quvchilar inshosini tahlil qilish va undan keyingi ishlar. Nutqiy xatolar va ularni bartaraf etish yo'llari. O'quvchilar yo'l qo'yadigan nutqiy xatolarning asosiy turlari, ularni to'g'rilash va oldini olish yo'llari.

IX. Boshlang'ich sinf ona tilidan sinfdan tashqari ishlar.

9.1 Ona tilidan sinfdan tashqari ishlar. Sinfdan tashqari ishlarning shakllari va vazifalari. Kuni uzaytirilgan guruhlarining ish turlari.

“Matematika o'qitish metodikasi” kursi

“Matematika o'qitish metodikasi” fani bakalavriatning “5111700 – Boshlang'ich ta'lim va sport-tarbiyaviy ish” ta'lim yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalarga shunday nom bilan o'qitiladi.

Mazkur kurs, eslatilgan ixtisoslik bo'yicha o'quv rejasida belgilangan matematika o'qitish metodikasi, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlashda eng muhim o'rinni egallab, bu fan yuzasidan o'qituvchining kompetentligi va intellektualligini tayyorlashda alohida o'rinni egallaydi. Umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinflari, pedagogik kollejlarda matematikani samarali o'qitish, eng avvalo o'qituvchining bu fanlar yuzasidan erishgan bilimlari, malakalari va ko'nikmalari bilan belgilanadi.

I-BOB. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning umumiy masalalari.

Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi fan sifatida. Uning mazmuni va uzviyligi. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning tarbiyaviy, ta'limiy va rivojlantiruvchi maqsadi. Boshlang'ich sinflarda matematika fani tuzilishining o'ziga xos xususiyatlari, uning mazmuni. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasining didaktik tamoyillari va variativ o'qitish usullari. Bolalar bog'chasida va boshlang'ich sinflarda matematika o'qitilishi orasidagi uzviylik. O'qitish metodlari. Darslarda pedagogik texnologiya va axborot kommunikasion texnologiyalardan foydalanish. Matematik tushunchalar haqida

tasavvur hosil qilishda nazariy ma'lumotlarning o'rni. Ko'nikma va malaka hosil qilishda kursning amaliy yo'nalishi. Boshlang'ich sinf matematikasi va matematika o'qitishning kelgusi bosqichi orasidagi uzviylik. O'quvchilarning o'quv yili oxiridagi bilim, ko'nikma hamda malakalariga qo'yilgan dastur talablari asosida nazorat tahlili. Boshlang'ich sinfda matematika o'qitish metodi. Metod tushunchasi. Uning turlari va tasnifi. O'quv bilish faoliyatini tashkil qilish metodi va ular orasidagi bog'liqlik. O'quvchilarning mustaqil ishlari – o'qitish metodi sifatida. O'qitishni tashkil qilishda didaktik o'yin metodidan foydalanish. O'quvchilar bilimini o'zlashtirish samaradorligini aniqlash metodlari. Dasturlashtirilgan ta'lim. O'quvchilarning faollik darajasiga ko'ra qo'llaniladigan metodlar. Matematika darsida nazorat turlari va ularni tashkil qilish, o'quvchilarning daftar bilan ishlash metodlari.

Boshlang'ich sinfda matematika o'qitishni tashkil qilish shakllari. Boshlang'ich sinfda matematika darsining tuzilishi va dars tizimi. Dars, dars mazmuni, texnologik xaritalar tuzish. Muammoli dars va uni tashkil qilish usullari. Ta'limning darsdan tashqari yordamchi shakllari (to'garak, matematika kechasi va boshqa turlari); o'zlashtirmaydigan o'quvchilar bilan ishlash; o'quvchilar uy vazifalari, uni tashkil qilishga qo'yilgan talablar; o'quvchilar bilimini tekshirish metodlari; darsdan tashqari mashg'ulot turlari, boshlang'ichga xos tarixiy ma'lumotlar mazmuni. Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash. Ixtisoslashtirilgan boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish.

Matematikadan dars jarayonini yoritish uchun qo'llaniladigan o'quv vositalari va ularning vazifalari. Matematikadan Boshlang'ich sinflar uchun darsliklar, ularning mazmuni va tuzilishi. Turli metodik qo'llanmalar, ko'rgazmalar va ulardan foydalanish. O'qitish vositalardan ijodiy foydalanish va yasaladigan ko'rgazmali ko'rsatmalar. Boshlang'ich sinflarda fakul'tativ mashg'ulotlarni tashkil etish. Oz komplektli maktablarda matematika o'qitish xususiyatlari. Oz komplektli maktablarda matematika o'qitishni tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari.

II-BOB. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitishning xususiy masalalari.

Boshlang'ich sinflarda nomanfiy butun sonlarni nomerlashga o'rgatish metodikasi. O'quvchilarni maktabgacha bo'lgan davrda matematik tayyorgarligi darajasini aniqlash va ularni tartibga solish. Nomerlashga o'rgatishga tayyorgarlik. Son va sanoq tushunchasini shakllantirish bosqichlari. O'nli sanoq sistemasi xususiyatlari va uning nomerlashga asos qilib olinishi. Kotsentrlar bo'yicha nomerlashga o'rgatish metodi. Darsni tashkil qilish, ko'rgazmalilik hamda didaktik materiallardan foydalanish. Raqamlashga o'rgatishda matematik diktantning o'rni.

Asosiy miqdorlar va ularni o'lchov birliklarini o'rgatish metodikasi. Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan asosiy miqdorlar: uzunlik, massa, narx, baho, vaqt, masofa, tezlik. Miqdorlarni o'lchash, o'lchov birliklarining turlari orasidagi bog'liqliklar va ular ustida amallar bajarishga o'rgatish metodikasi.

Nomanfiy sonlar ustida arifmetik amallarni o'rgatish metodikasi. Arifmetik amallarni o'rgatishning umumiy masalalari. Qo'shish va ayirish, ko'paytirish va bo'lish amali ma'nosini ochib berish va uni bosqichlab kotsentrlarda bajarilishini

o'rgatish. O'quvchilarning og'zaki va yozma hisoblash malakalarini shakllantirish. Qo'shish va ko'paytirish jadvallari va ularga mos ayirish va bo'lish hollarini o'rgatish. Og'zaki hisoblash texnologiyalari. Yozma hisoblash algoritmini o'rgatish. Hisoblash malakalarini tekshirish uchun nazorat ishlari. Hisoblashda o'quvchilar yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatolarni aniqlash va uni bartaraf qilish yo'llari. Og'zaki va yozma hisoblashga doir didaktik (o'yinlar) topshiriqlar to'plamini tuzish.

Algebraik materiallarni o'rgatish metodikasi. Son va ifoda tushunchasi. Ifoda va sonli ifoda. O'zgaruvchi qatnashgan ifoda. Tenglik, tengsizlik. Sonli tenglik, tengsizlik va uni yechishga o'rgatish metodikasi. Tenglama va uni yechishga o'rgatish usullari.

Geometrik materiallarni o'rganish metodikasi. Figura (nuqta, kesma, ko'pburchak) tushunchasi haqida tasavvurni shakllantirish va ularni chizish, ayrim xossalari bilan tanishtirish metodikasi. Sodda geometrik yasash ishlari bilan tanishtirish, fazoviy tasavvurlarni rivojlantirish. Figuralarni farqlay olish, qismlarga bo'lish, qismlardan figuralar hosil qilish, ko'pburchaklar perimetri hamda yuzasini hisoblash, perimetr va yuza o'lchov birliklari va ular orasidagi bog'lanishga doir masalalar yechish.

Kasr tushunchasi bilan tanishtirish metodikasi. Ulush. Butunning ulushini topish. Ulushga ko'ra butunni topish. Maxraji 10 dan oshmagan kasrlarni taqqoslash. Maxrajlari bir xil bo'lgan kasrlarni qo'shish va ayirishning ma'nosi. Sonning kasr qismi va kasrga ko'ra sonni topishga doir masalalar yechish.

Arifmetik masalalar yechishga o'rgatish metodikasi. Masala va uning tarkibi. Sodda va murakkab masalalar. Masala tuzish va uni yechish. Masala yechishga o'rgatish bosqichlari va uning mantiqiy asosi. Masalalar turlari va ular ustida ijodiy ishlash. Konsentrlar bo'yicha masalalar yechish ustida ishlash. Masala yechishga o'rgatishning umumiy usullari ustida ishlash. To'g'ri to'rtburchak va kvadratning perimetrini, yuz o'lchov birliklari. Yuzlarni formula yordamida hisoblashga doir masalalar. Bir o'zgaruvchili tenglamalar bilan yechiladigan murakab masalalarni yechishga o'rgatish. Daromad va buromadga doir iqtisodiy sodda masalalar. Masalalarni tenglama va jadval tuzib yechish.

Matematika o'qitish metodikasining taraqqiyoti tarixi hamda uning kelajakda takomillashuvi va rivojlanish yo'llari. Matematika o'qitish metodikasining paydo bo'lishi, taraqqiyot bosqichlari asoschilari. Hozirgi zamonda fanning istiqboli.

“TABIATSHUNOSLIK VA UNI O‘QITISH METODIKASI” kursi

“Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi” kursi 5111700 - Boshlang'ich ta'lim va sport, tarbiyaviy ish” ta'lim yo'nalishida o'qitiladi. Ushbu dastur bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilariga tarbiyalovchi ta'lim sistemasini tushunib olish, tabiatshunoslikni o'qitish asoslarini, uning uchun xos bo'lgan shakl, metod va uslublarini, o'quvchilarning bilish faoliyatlariga rahbarlik qilishni o'rganib olishlariga yordam qilish kabi amaliy masalalarini o'z ichiga oladi.

Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasikursining «Tabiatshunoslik metodikasini o'qitish ta'limoti rivojlanishining tarixi» mavzusidagi ma'ruza darsida

muammoli dars, «Boshlang'ich maktablarda tabiatshunoslik fanining mazmuni, o'quv dasturni rejalashtirish tamoyillari» darsida stol atrofidagi suhbat, «Boshlang'ich maktabda tabiatshunoslik kursini mazmuni va tabiatshunoslik tasavvurlarini shakllantirish metodik asoslari» darsida aqliy hujum, «Tabiatshunoslik fani bo'yicha o'quvchilar bilimlarini tekshirish» darsida didaktik o'yinlar usullaridan foydalaniladi. «Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi», «Tabiatshunoslikni o'qitish shakllari» va «Tabiatshunoslik bo'yicha sinfdan tashqari ishlar» mavzulariga bag'ishlangan mashg'ulotlar esa kompyuterlashtirilgan multimedia, hamda «PowerPoint» dasturlari asosida o'tkaziladi.

Konferetsiya, seminar, didaktik o'yinlar, muammoli topshiriq usullari hamda multimedia dasturlari «O'zbekistonning boshlang'ich maktablarida tabiatshunoslikning o'qitilishi», «Tabiatni o'qitish jarayonida o'quvchilarni har tomonlama tarbiyalash», «Hozirgi zamon tabiatshunoslik darslariga bo'lgan asosiy talablar», «Tabiatni o'rganishda sinfdan tashqari ishning ahamiyati», «O'quv-tajriba uchastkasida ishlash metodikasi» va «Kuzatish-tabiatni o'rganishdagi asosiy metoddir» mavzudagi amaliy mashg'ulotlarida qo'llaniladi.

Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi

Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi - pedagogik fan.

Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasining predmeti, maqsad, vazifa va izlanishlar uslublari. Uning metodologik asoslari va boshqa fanlar bilan bog'lanishi. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi sohasidagi tadqiqod metodlari. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasining pedagogika o'quv predmeti sifatida ilmiy – nazariy va amaliy yutuqlari, ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi sohasidagi zamonaviy muammolar. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi kichik yoshdagi o'quvchilarni o'qitish, tarbiyalash va ularni rivojlantirish tizimi to'g'risidagi fan. Uning tarbiya sistemasidagi o'rni.

Tabiatshunoslik va uni o'qitish metodikasi ta'limotining shakllanishi va rivojlanishi.

V.F.Zuyev- tabiatshunoslik o'qitish metodikasi darsligining birinchi muallifi. A.Ya.Gerd - tabiatshunoslikni o'qitish metodikasining asoschilaridan biri. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasi ta'limotining shakllanishi. Tabiatshunoslikni o'qitishni rivojlantirishga hissa qo'shgan jahon metodistlarining ilg'or g'oyalari D.N.Kaygorodov, V.P.Vaxterov, L.S.Sevruk, I.I.Troyanovskiy, D.D.Semenov, I.I.Polyanskiy, B.E.Raykov, V.A.Gerd, K.P.Yagodovskiy, S.A.Pavlovich, M.N.Skatkin, P.A.Zavitaev, A.N.Nizovoy, Z.A.Klepinina, G.N.Akvileva, A.A.Pleshakov, F.Vinogradova va A.A.Vaxrushevlarning ishlari.

Vatanimizda tabiiy fanlarni o'qitishni takomillashtirishga hissa qo'shgan olimlar: Ye.M.Belskaya, A.G.Grigoryants, T.I.Isxakov, A.T.G'ofurov, A.E.Suxarev, R.A.Gurova, G.S.Noga, S.K.Xabirova, A.Qodirov, M.M.Mahkamovlarning ishlari. Tabiatshunoslikni o'qitish metodikasining zamonaviy rivojlanishi.

Quyosh sistemasi.

Koinot. Galaktika, uning turlari va tuzilishi. Yulduzlar tizimi. Quyosh sistemasi va sayyoralar. Merkuriy. Venera. Mars. Yupiter. Neptun. Saturn. Uran. Quyosh sistemasidagi sayyoralarning o'rganilganlik darajasi. Sayyoralarning qobiqlari. Sayyoralar va Quyosh orasidagi masofa. Yulduz, asteroid va meteoritlar.

Yer, uning shakli va harakati

Yer.Yerning shakli. Yerning o'z o'qi atrofida va Quyosh atrofida aylanishi. Kun va tun almashishi. Yil fasllarining almashishi.Ekvator. Meridian va parallel chiziqlari. Globus.Harita.Oy.Uning fazalari.

Yerning geografik qobig'i.

Gidrosfera. Suv – hayot manbai. Litosfera. Yadro. Mantiya. Foydali qazilmalar. Atmosfera. Havo gazlar aralashmasidan iborat bo'lib suv bug'larini hisobga olmaganida, kimyoviy tarkibi jihatidan barqaror materiyadi. Atmosfera (grekcha so'zdan olingan bo'lib, atmos-bug', sfera –shar, yani bug'li qobiq, yoki havo qobig'i demakdir) -saiyoramizni o'rab turuvchi va u bilan birgalikda harakterlanuvchi, hamda undan ketadigan turli hodisa va jayonlarda ishtirok etuvchi havo qobig'idir.

Tiriklik belgilari.

Hujayraning oziqlanishi, rivojlanishi va ko'payishi.

O'simliklar fiziologiyasi.

Botanika fanining vazifalari.Floraning inson hayotidagi axamiyati. O'simliklarning organlari. Generativ va vegetativ a'zolar. Gulli o'simliklarning ko'payishi. Ularining turlari, oilalari, xususiyatlari. O'simliklar hayotiy shakllari. Tuban o'simliklar. Yuksak o'simliklar.

Hayvonot olamining xilma xilligi

Zoologiya so'zi zoon - hayvon va logos - ta'limot, ya'ni fan degan ikkita grekcha so'zdan kelib chiqqan. Bu fan hayvonot olamining xilma-xilligi, tuzilishi, hayvonlarning hulq-atvori, ko'payishi, rivojlanishi, geografik tarqalishi va kelib chiqishini, shuningdek, ularning tabiatdagi va odam hayotidagi ahamiyatini o'rganadi.

Hayvonot olami. Bir xujayrali organizmlar. Hayvonot olamida sinf, tur va avlod. Baliqlar. Sudralib yuruvchilar. Qushlar. Sut emizuvchilar.

Boshlang'ich maktab tabiyatshunoslik fanining ta'limiy va tarbiyaviy vazifalari.

Tabiatshunoslikni o'qitishda o'quvchilarni ma'naviy, ahloqiy, aqliy, vatanparvarlik, ekologik, estetik, iqtisodiy, jinsiy, gigienik, mehnat va baynalminal tarbiyalash masalalari.

Ijodiy faoliyat tajribalari ijodiy va erkin fikrlashning asosi. Ijodiy faoliyat tajribalarini shakllantirish yo'llari. O'quvchilarda atrof-muhitga nisbatan ongli munosabatni tarkib toptirish. Qadriyatlar tizimi, tabiiy, moddiy, ma'naviy, milliy, umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish yo'llari.

Tabiatshunoslik ta'lim mazmunining tarkibiy qismlari. Tushunchalar, g'oyalar, nazariyalar. Asosiy g'oyalar va ularni o'quvchilar ongiga singdirish yo'llari. Umumbiologik va xususiy tushunchalar. Tushunchalarni shakllantirish va

rivojlantirish usullari. Asosiy tabiatshunoslik ko'nikmalar va malakalar, ularni tarkib toptirish yo'llari. O'quvchilar bilan o'lkashunoslik ishlarini olib borish.

Tabiatshunoslikni o'qitish tamoyillari va qonuniyati.

Tabiatshunoslikni o'qitishga qo'yiladigan zamonaviy talablar. Didaktik tamoyillari to'g'risida tushuncha. Ta'lim jarayonining yaxlitligi va tizimligi, o'qitishning muntazamligi va izchilligi.

O'qitish tamoyillari (ta'lim-tarbiya jarayonini demokratizatsiyalash va insonparvarlashtirish, ilmiylik, sistemalilik, fundamentallilik, ko'rgazmalilik, samaradorlik, onglilik, tushunarlik, ta'limni differentsiallashtirish va individuallashtirish, individual va guruhlarda o'qitishni uyg'unlashtirish, o'qitish maqsadi, mazmuni, vositalari, metodlari, shakllari va natijalarining birligi, baholash va o'zini-o'zi baholash)lari va qonuniyat (o'qitish maqsadi, mazmuni, vositalari, metodlari va shakllarining ijtimoiy muhitga bog'liqliligi, tarbiyalovchi va rivojlantiruvchi ta'lim, ta'lim-tarbiya jarayonini tahsil oluvchilarning faoliyati xarakteriga bog'liqliligi, pedagogik jarayon birligi va yaxlitligi, o'qitishning nazariy va amaliy birligi va uzviy bog'liqliligi, o'quv faoliyatini individuallashtirish va guruhli o'qitishni uyg'unlashtirish)lari. O'lkashunoslik qoidalari.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tabiatshunoslik tasavvur va tushunchalarni shakllantirishning metodik asoslari.

Tabiatshunoslik tasavvur va tushunchalarning shakllantirish asoslari. Tabiatshunoslik tushunchalarning klassifikatsiyasi. Boshlang'ich sinflarda tabiatshunoslik tasavvur va tushunchalarning sistemasi, ularni shakllantirish va rivojlanish sharoiti. Tabiatshunoslik tushunchalarning shakllantirish bosqichlari.

Tushunchalarning shakllantirish va rivojlanish usullari. Tabiatshunoslik tushunchalarni o'zlashtirish jarayoni (kuzatish, qabul qilish, konkretlashtirish, umumiyashtirish, aniqlash). Tabiat va atrofimizdagi olam haqida bilimlarni oshirishni izchilligi.

Umumiy, geografik va biologik tushunchalarni shakllantirish. Tabiatshunoslik tushunchalar, g'oyalar, nazariyalar. Asosiy g'oyalar va ularni o'quvchilar ongiga singdirish yo'llari. Umumtabiiy va xususiy tushunchalar. Tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirish usullari.

Tabiatshunoslikni o'qitish metodlari.

Zamonaviy maktab tomonidan o'qitish metodlariga qo'yiladigan talablar. Talablarga ko'ra o'qitish metodlarni qo'llash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi xujjatlari. O'qitish metodning modeli.

Dunyoni anglash metodlari va o'qitish metodlari. Metodlar klassifikatsiyasi bo'yicha munozaralar. Tabiatshunoslikni o'qitishda foydalaniladigan metodlar tasnifi. O'qitishning reproduktiv metodlari. Og'zaki (suhbat, hikoya, ma'ruza), ko'rgazmali (tabiiy, tasviriy, EXM dasturlari, multimedialar), amaliy (kuzatish, tajribalarni tashkil qilish) metodlar guruhi.

Og'zaki metodlar tasnifi, bayonning turlari (tasvirlash, tasniflash, aytib berish). Ularga qo'yiladigan talablar. Ko'rgazmali metodlar tasnifi. Ko'rgazmali qurollarni, tajriba, kino va videofilmlarni hamda sxemalarni namoyish qilish (ko'rsatish). Ularga qo'yiladigan didaktik talablar. Amaliy metodlar turlari va

tavsifi (qisqa va uzoq muddatli kuzatishlar, amaliy va laboratoriya ishlari, asbob-uskunalar bilan mustaqil ishlar). Jo'g'rofik maydoncha va tabiat burchagida kuzatish. O'quvchilar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda amaliy ishlarning ahamiyati.

Tabiatshunoslikni o'qitishda zamonaviy pedagogik (didaktik-o'yinli, hamkorlikda o'qitish, muammoli, modulli ta'lim) va axborot texnologiyalaridan foydalanish.

Metodik uslublar. Ularning turlari, tabiatni, odamlar mehnatini o'rganishda xususiyatlari. Tabiatshunoslik metodlarini tanlash va o'quv jarayonida to'g'ri qo'llash.

Tabiatshunoslikdan o'quv ishlarini tashkil etish shakllari.

Dars-o'quv ishlarini tashkil etishning asosiy shakli. Tabiatshunoslik darslarining turlari. O'quv tarbiyaviy jarayonga tizimli yondashuvning mohiyati. Tabiatshunoslik darslariga qo'yiladigan didaktik, tarbiyaviy, psixologik va gigienik talablar. Zamonaviy dars tarkibi. Darsning tipi va tarkibining bog'liqligi. Darsning makro- va mikrostrukturasi. Har xil tipdagi darslarning strukturasi. Tabiatshunoslik darslarini takomillashtirish omillari.

Darsdan tashqari ishlar - o'quv ishlarini tashkil etishning zaruriy shakli. O'quv dasturlariga muvofiq holda tabiatda, tirik tabiat burchagida va maktab tajriba maydonida muayyan darsga mo'ljallangan o'quvchilarning individual va guruhli ishlarini tashkil etish. Darsdan tashqari ishlarning tarbiyaviy, ekologik yo'nalishlari. Dars, darsdan va sinfdan tashqari ishlarning o'zaro bog'liqligi.

Tabiatshunoslikdan sinfdan tashqari mashg'ulotlarning maqsadi, vazifalari, ta'lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyati, ularning amaliy va ekologik yo'nalishi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlarning turlari: o'quvchilar bilan yakka tartibda olib boriladigan, guruhli va ommaviy mashg'ulotlar. O'quvchilarning yakka tartibda ijodiy ishlarini tashkil etish, tirik tabiat burchagi, maktab tajriba maydonchasi, tabiatda va mustaqil ravishda tajribalar va kuzatishlar o'tkazish, kuzatish kundaligini yuritishni o'rganish. Tabiatshunoslik to'garaklarning didaktik maqsadi, vazifalari, mazmuni va mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi. Tabiatshunoslikdan ommaviy mashg'ulotlarning maqsadi, vazifalari, mazmuni.

Uy vazifasi - o'quvchilarning mustaqil tahsilining asosi. O'quvchilarning mustaqil ishi va tahsilini tashkil etishning samarali yo'llari. O'simliklar va hayvonlarni o'stirish, tajribalar qo'yish, darslik, qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash. Ijodiy daftardagi ish (qiziqarli materiallar, topishmoqlar, rebus, krossvord va chaynvordlar to'plash). Ekskursiyalarda to'plangan materiallardan applikasiya va gerbariyalar tayyorlash. Uy vazifalarini individuallashtirish.

Tabiatshunoslik o'qituvchisi (kasbiy tayyorgarligi, ijodiy va ijtimoiy faolligi, ma'naviy-ahloqiy sifatleri, g'oyaviy-siyosiy yetukligi)ga qo'yiladigan umumiy talablar. O'qituvchining darsga tayyorgarligi. Dars mazmuni va borishining mavzuning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarga mos kelishi. Darsning tuzilishini loyihalash. Dars ishlanmalarini loyihalashga qo'yiladigan talablar.

Dars mazmuniga bog'liq holda o'quv jihozlari, tarqatma va didaktik materiallar, kuzatish va tajriba o'tkazish uchun kerakli asboblarni tayyorlash.

Tabiatshunoslik fani bo'yicha o'quvchilar bilimlarini nazorat qilish va baholash.

Tabiatshunoslik darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilar bilimlarini nazorat qilishni ahamiyati. Mavzu, chorak va yil yakunlarida o'tilgan o'quv materiallarni takrorlash va umumlashtirish. Umumlashtiruvchi darslarning mazmuni va o'tkazish metodikasi. O'quvchilarda umumlashtirish va izohlash ko'nikmalarini shakllantirish.

Bilimlarni tekshirish turlari. Og'zaki so'rash va yozma tekshirish. Individual, frontal va ommaviy so'rash. Bilimlarni yozma tekshirishda topshiriqlarning turlari. Laboratoriya va amaliy ish (o'zaro nazorat varag'i yordamida, EXMning nazorat dasturlari vositasida).

Bilim va ko'nikmalarini tekshirish tizimi (rasm, jadval, didaktik kartochkalar, dasturlashtirilgan topshiriqlarni tahlil qilish). Ijodiy daftar yuritish, amaliy masalalar yechish.

O'quvchilarni bilim va ko'nikmalarni baholash va tekshirish metodlari (tabiatshunoslik darslarida test topshiriqlari orqali o'tkaziladigan joriy nazorat; har chorak yakunida programmashtirilgan topshiriqlar, ijodiy daftardagi ishlarni tahlili asosida o'tkaziladigan tekshiruv; yillik bilim va ko'nikmalarni baholash). O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini baholashga qo'yilgan metodik talablar.

Tabiatshunoslikni o'qitish vositalari.

Tabiatshunoslik o'quv xonasi va o'quv jihozlariga qo'yiladigan pedagogik, gigienik, estetik va psixologik talablar. Tabiatshunoslik xonasidagi jihozlar. O'qitish vositalarining hillari: tabiiy va tirik ob'ektlar (gerbariy, kolleksiya, chuchelolar, ho'l preparatlar, mikropreparatlar), tasviriy (jadvallar, sxemalar, xaritalar, mulyajlar, maketlar), ekran vositalari (o'quv vositalari, slaydlar, multimedialar) va ulardan foydalanish yo'llari. O'qitishning texnikaviy vositalari.

EXMning ko'rgazmali va nazorat dasturlari, elektron versiyalar va elektron darsliklardan tabiatshunoslik darslarida foydalanish. Tabiatshunoslikni o'qitishda multimedia (ovozli, matnli, ovoz-matnli, vizual uch ko'lamli - 3D)lardan foydalanishning afzalliklari.

Tabiatshunoslik darsliklari va ular bilan ishlash. Darslikdagi surat va topshiriqlar hususiyati. Darslikdagi rasmlarning didaktik roli. Suratlar, devoriy suratlar bilan ishlash metodikasining hususiyatlari. Harita - sxemalardan foydalanish metodikasi.

Jo'grofiya maydonchasi, o'quv-tajriba uchastkasi va tirik tabiat burchagini jihozlash va ularda mashg'ulotlarni tashkil qilish.

Jug'rofiya maydonchasida tabiatni o'rgatish usullari va uning ahamiyati.

Maktab tajriba maydonchasi va unda ishlarni tashkil etishga qo'yiladigan talablar. O'simliklarni tanlash, sarmahsul navlarini ekish va parvarish qilish. Maktab tajriba maydoni zoologiya bo'limini tashkil etish va jihozlash. O'quv-tajriba uchastkasining asbob-uskuna va vositalari. Maktab tajriba maydonidan

olinadigan materiallardan o'quv jarayonida foydalanish. Maktab tajriba maydonchasida o'tkaziladigan o'quv mashg'ulotlarining o'ziga hos xususiyatlari.

Tirik tabiat burchagi. Tirik tabiat burchagini tashkil etish, jihozlash, ularning tabiatshunoslikni o'qitishdagi ahamiyati. O'simliklar va hayvonlar tanlash va joylashtirish. Tabiat burchagini tashkil etish va jihozlashda o'lkashunoslik xususiyatlarni hisobga olish. Tirik tabiat burchagida o'quvchilarni tabiat bilan tanishtirish usullari va uning ahamiyati. O'simliklar va hayvonlarning tasnifini tuzish, ularni parvarish qilish. Tirik tabiat burchagida kuzatish va tajribalar o'tkazish, darsdan tashqari ishlarni tashkil etish.

Boshlang'ich maktabda o'lkashunoslik burchagi. O'lkaning o'simlik va hayvonot olami, davlat muhofazasidagi o'simliklar va hayvonlar. O'zbekistonning qizil Kitobi.

